

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA-MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek tili yo‘nalishi

15.40-guruh bitiruvchisi Akmalidin Nizomiddinovning

“Adabiyotda padarkush va farzandkush obrazi”

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: S.Xo‘jayev, katta o‘qituvchi

Farg‘ona – 2019

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2019-yil _____ dagi _____
yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ G. Muhammadjonova, f.f.n.

Taqrizchi: _____ S. Rahimova, Farg'ona shaxar 1-VIDUMI _____ ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi

MUNDARIJA:

KIRISH	4
--------------	---

BIRINCHI BOB

I. Adabiyotda otalar va bolalar munosabatining tarixiy, axloqiy asoslari ...	9
--	---

1.1. Jahon adabiyotidagi otalar va bolalar munosabatlariga bag‘ishlangan asarlarning umumiy tavsifi.....	9
--	---

1.2. O‘zbek adabiyotida ota va farzand masalasi.....	19
--	----

IKKINCHI BOB

II. Badiiy asarlarda padarkush va farzandkush obrazlarining o‘xshash va farqli jihatlari.....	30
---	----

2.1. Jahon va o‘zbek adabiyotidagi padarkush obrazlarining qiyosiy tahlili.....	30
---	----

2.2. Badiiy adabiyotda farzandkush obrazining ifodalanishi	44
--	----

XULOSA	56
--------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	59
--	----

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ko‘plab sohalar qatori adabiyotshunoslik sohasida ham jiddiy islohot va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov ma’naviyat haqida fikr bildirar ekan, shunday deydi: „*Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat qildigan, iymon-e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuchdir.*”¹ Xuddi shunday ta’rifni adabiyotga nisbatan ham ishlatish mumkin. Badiiy adabiyot xalqning ma’naviyatini va madaniyatini ko‘rsatib beruvchi asosiy vositadir. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi zamonda adabiyotimiz tobora yangi bosqichga, baland pog‘onalarga ko‘tarilmoqda. Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bejizga: „*Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’timiz ham albatta bo‘ladi*”² – deb ta’kidlamagan. Bu orqali yurtboshimiz adabiyotimizning yanada yuksalayotganiga, yanada ravnaq topishiga ishonch bildirgan.

Hech bir millat adabiyoti boshqa xalqlar adabiyoti bilan aloqadorliksiz rivojlana olmaydi. Sobiq SSSR davridayoq mamlakatimiz aholisi bir qator adib va tarjimonlarimizning sa’y-harakatlari evaziga jahon adabiyotining eng sara asarlarini o‘z ona tilimizda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘la boshlagan edi. Ayniqsa rus va G‘arb adabiyoti ta’sirida xalqimiz ongi va tafakkurida, qolaversa adabiyot va san’atda yangiliklar va sezilarli o‘sish kuzatildi. Biz bu haqiqatni e’tirof etishimiz kerak. Biroq bu jarayon faqat kommunistik mafkura doirasidagina amalga oshirilgan. O‘zbek tiliga tarjima qilingan sara asarlar ham, o‘zbek adabiyotida paydo bo‘layotgan yangicha mavzudagi, yangicha janrdagi, eskicha an’anaviylik va bir xillikdan holi bo‘lgan asarlar

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009

² O‘zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqdan. 2017-yil, 3-avgust.

ham hukmron mafkura nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Kommunistik mafkura g'oyalari mos kelmagan asarlarning nashr etilishi jiddiy ta'qib ostiga olindi. Bunga misol qilib o'zimizning ko'plab buyuk yozuvchi va shoirlarimiz taqdirini olaylik. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Shukrullo, Said Ahmad kabi o'zbek adabiyotining yirik vakillarining qatag'on qilinganligi fikrimizning yorqin isbotidir.

Istiqlol yillarida ham adabiyotga jiddiy e'tibor berilib, ijodiy muhitning kengayishi va erkinlashishi uchun sharoit yaratildi. Natijada, o'zbek adabiyotida jahon tajribalaridan foydalanilgan holda yangicha ruhdagi, xilma-xil mavzu va g'oyalarni o'zida aks ettirgan asarlar yaratila boshlandi. Adabiyot ustidan yagona mafkura hukmronligi olib tashlandi. Jahon adabiyotining qator namoyondalarining ajoyib asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, xalqimiz ma'naviyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasida anchagina tafovutlar mavjud bo'lib, bu jarayon badiiy adabiyotda ham kuzatiladi. Biroq, har qanday chinakam badiiy asarlar faqat ezgulikka xizmat qilishi, ulardan bosh maqsad insonni tushunish va tahlil etish, inson qalbini tozalash hamda unda go'zallikka nisbatan muhabbat tuyg'usini shakllantirish ekanligini qayd etish joiz. Shu boisdan ham asl adabiyot millat va mentalitet tanlamaydi, ularni adabiyotga bee'tibor bo'lmagan har qanday inson o'qib, bahra oladi. Biz o'zbek va jahon adabiyotining bir qator mashhur adiblarining asarlarini o'qib chiqish jarayonida yuqorigidagidek xulosaga keldik.

Bizga ma'lumki, badiiy adabiyot san'atning bir turi sifatida doimo insoniyat uchun xizmat qiladi. U insoniyat hayoti bilan uzviy aloqada. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, odamzod paydo bo'lib, ilk oila vujudga kelgandan buyon otalar va bolalar munosabati shakllana boshlagan. Otalar va bolalar muammosi hamisha dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda ham bu muammo dolzarbligini yo'qotmagan. "Asrlar davomida bashariyat

hamisha axloqiy barkamollik sari intilib keladi. Insonning amaliy faoliyatida ma'naviy-axloqiy muammolar turli ko'rinishlarda mavjud bo'ladi. Yoshlar bilan kattalarning dunyoqarashi har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Hamisha bu dunyoqarashlar o'rtasida ziddiyat bo'lib turadi. Jamiyat va taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri otalar va bolalar munosabati hisoblanadi".³ Hayotda ro'y bergan va ro'y beradigan otalar va bolalar o'rtasidagi azaliy muammo badiiy adabiyotda aks etmasligi mumkin emasdi. Sharq adabiyotida bu mavzuga alohida urg'u beriladi. Bizga ma'lumki, sharq mintalitetida oilaga bo'lgan qarash alohida ahamiyat kasb etadi. Oilaning muqaddasligi, ota-onaga bo'lgan hurmat, farzand tarbiyasiga e'tibor Islom dinida ham o'z aksini topgan. Ammo otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'z ota-onasining o'limiga sababchi bo'lgan farzandlar va o'z jigarbandini o'ldirganlar haqida uzoq o'tmish va yaqin tarix guvohlik beradi. Islom dini va sharq mintaliteti negizida shakllangan o'zbek adabiyotida shu mavzuga oid ko'plab asarlar yaratilgan. G'arb adabiyotida ham otalar va bolalar munosabati o'zgacha ko'rinish kasb etadi.

Otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'z otasining qotiliga aylangan padarkush hamda o'z farzandining umriga zomin bo'lib farzandkushga aylangan insonlar taqdiri adabiyotda ham o'z aksini topdi. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda aynan shu muammoning kelib chiqish sabablari, zamon va makon ta'siri til, madaniyat jihatdan bir-biridan ancha uzoq bo'lgan jahon va o'zbek adabiyotidagi ushbu masala aks etgan asarlar tahlili asosida yoritib berishga urindik.

Mavzuning o'rganilishi. Mavzuimizga aloqador bo'lgan ilmiy maqola va tadqiqotlar ko'p uchramaydi. Otalar va bolalar munosabati mavzusiga Foziljon Kiyikboyevning "O'zbek nasrida otalar va bolalar muammosi: genezisi realistik talqini" nomzodlik desertatsiyasi, M.Gorkiy "Adabiyot haqida. Adabiy tanqidiy maqolalar", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" Adabiyotdagi padarkush obrazi bo'yicha Yo'ldosh Solijonovning "Zulmatdan nur qidirganlar"

³Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

Naim Karimovning “Najot adabiyot-dadir” („Yoshlik” jurnali, 2014-yil 6-son)⁴ maqolalarida va internet maqolalarida o‘z ifodasini topgan.

Bitiruv-malakaviy ishining tadqiqot obyekti. Ushbu mavzuni yoritishda jahon adabiyoti durdonalaridan Gogolning “Taras Bulba”qissasi, Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi, N.A. Kunning “Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari” kitobi, Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasi, Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni, Prosper Merimening “Matteo Falkone” hikoyasi, o‘zbek adabiyotidagi Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, A. Qahhorning “Hurqiz” hikoyasi, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi asos qilib olindi. Shuningdek, mavzuga aloqador bo‘lgan boshqa asarlar, ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ham vaqti-vaqti bilan murojaat qilindi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi. Biz G‘arb va o‘zbek adabiyotida ota va bola munosabatlari aks ettirilgan hamda padarkush va farzandkush obrazlariga murojat qilingan asarlarni o‘rganish va o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib berishni maqsad qilib oldik. Namuna sifatida ana shunday mavzuda yaratilgan jahon va o‘zbek adabiyoti asarlarini oldik.

Bitiruv-malakaviy ishining vazifalari. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Adabiyotda otalar va bolalar munosabatining tarixiy va tarbiyaviy asoslarini o‘rganish;
- badiiy adabiyotda ota va farzand munosabatiga bag‘ishlangan asarlarning ahamiyatini belgilash;
- asarlardagi farzandning ota qotiliga aylanishiga sabab bo‘lgan omillarni o‘rgnish;

⁴ Karimov N. Najot adabiyotdadir. „Yoshlik”, 2014-yil 6-son. www.ziynet.uz

- jahon va o‘zbek adabiyotida tasvirlangan farzandkush obrazlarini qiyosiy tahlil qilish;
- ota va bola munosabatlari keskinlashgan asar qahramonlarining taqdiri misolida davr muammosini tahlil qilish;
- mavzumizga aloqador ruhdagi asarlar tahlili orqali yosh avlodga ota-onaning naqadar mo‘tabar inson ekanligini, farzandning qanchalar aziz ekanligini yana bir bor eslatish;
- to‘plangan ma‘lumotlar va fikrlar asosida mavzuni xulosalash.

Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, har biri ikkitadan faslni o‘z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Bitiruv-malakaviy ishining umumiy hajmi esa 61 sahifani tashkil etadi.

I BOB. ADABIYOTDA OTALAR VA BOLALAR MUNOSABATINING TARIXIY VA TARBIYAVIY ASOSLARI

1.1. Jahon adabiyotidagi otalar va bolalar munosabatlariga bag'ishlangan asarlarning umumiy tavsifi

Badiiy adabiyotda insonlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, xususan, oila, otalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar haqida va o'sha munosabatlarning turli ko'rinishlari, farzandlari oldida o'z otalik burchini unutgan otalar, farzandlik sadoqati, burchidan yiroq bo'lgan farzandlar yoki otalar va bolalar o'rtasidagi iliq munosabatlar, farzandlari oldidagi ma'naviy burchiga chin dildan yondashgan otalar, otalarining nasihatlari va o'gitlariga amal qilib kamolga erishgan avlodlar taqdiri aks etgan asarlar juda qadimdan beri yaratib kelinadi. Ko'plab xalq folklorlari, qadimgi Yunon va Rim afsonalariga, xususan, antik davr adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlab o'tgan holatlarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Jahon adabiyotidagi otalar va bolalar munosabatining ilk ko'rinishlari antik davr adabiyotida o'z aksini topadi. Otaning farzandiga bo'lgan muhabbati ilk adabiyot namunalaridan Gomerning "Illiada" dostonidayoq ifodalanadi unda otaning farzandiga bo'lgan muhabbati juda ta'sirli tarzda yoritib berilgan.

Asarda o'zining tutingan ukasi Patroklni o'ldirgan Hektordan qasd olish uchun Axiles Troya saroyiga boradi va Troya shaxzodasi Hektorni yakkama-yakka olishuvga chaqirib, uni mag'lub etadi. Uning jasadini esa xo'rlab, itlarga yem qilish maqsadida o'zlarining qarorgohiga sudrab ketadi. Shundan so'ng Troya shohi Priam ikki davlat o'rtasida qattiq jang ketayotgan bo'lsa ham, farzandining jasadini dushman qo'lida xor qildirmaslik uchun o'limni bo'yniga olib, dushman qarorgohiga borishi, Axilesga juda katta tovon to'lab, Hektorning jasadini dafn qilish uchun qaytarib olib kelishi, o'zi Troyaning podshohi bo'lishiga qaramay, dushmani bo'lgan Axilesning oldida o'g'lini qaytarib berishini so'rab yig'lashi, mard otaning farzandiga bo'lgan muhabbati qanchalik kuchli ekanini ko'rsatib bersa, Axilesni Priamning gaplaridan ta'sirlanib, o'z otasini eslab ko'z yosh

to'kishi va unga o'g'lini qaytarib berib, o'n uch kun urush qilmaslikka vada berishi yaxshi tarbiya ko'rgan farzandning otaga bo'lgan hurmat va sadoqatini ko'rsatadi.

Bularga dostonni o'qish davomida guvoh bo'lishimiz mumkin. Asarda Priamning farzandining hech bo'lmasa jasadini olib kelishda hech narsadan qaytmasligi quyidagicha hikoya qilinadi: *"...Priam shu zahotiyoq o'rnidan turdi va o'g'illariga sovg'ayu tortiqlar uchun oyoq-ulov va mahodani tayyorlashni amr etarkan, saroyga yo'l oldi. Saroyga kirayotib Priyam o'zining keksayib, munkillab qolgan xotini Hekubani chaqirib, unga yunonlar qarorgohiga bormoqchi ekanini bayon etdi. Hekuba qo'rqib ketdi. U eriga ko'ra-bila turib o'limga bormagin deya yalinardi. Lekin Priam unga Olimp sohib xudolar irodasiga bo'yin egib, Axill xuzuriga borayapman deya yupatmoqda edi. Priam eng yaxshi sovg'alarni tanladi va yo'lga ravona bo'lish tadorigini ko'ra boshladi. Priam mahodaga o'tirarkan otlarini haydab ketdi. Mahodadan oldingi aravaga xachirlar qo'shilgan bo'lib, ularni darakchi Idey boshqarib borardi. Go'yo chindan ham o'limga mahkum etilgandek Priamni kuzatuvchilar yum-yum yig'lashardi..."*⁵

Ushbu jummalarni o'qiganimizdayoq Hekuba Hektorning onasi bo'la turib, o'g'lini endi hayotga qaytara olmasligini bilib, Priamni yo'ldan qaytarmoqchi bo'lsa-da, Priam mard farzandining jasadini ham dushmanga xor qildirib qo'ymaydigan darajada g'amxo'r ota ekanini ko'rishimiz mumkin. Farzand dog'ida qolgan otaning holati keyinroq, Axillning chodiridagi voqeada yaqqol ifodalanadi: *"Ey buyuk Axill! Mendek keksaygan otangni esla! Balki uning shaxrini ham qo'shnilari ishg'ol etishgandir, balki uni ham musibatdan halos etguvchi yo'qdir. Men baxtiqaro chol qariyb barcha o'g'illarimdan judo bo'ldim. Sen o'g'illarim ichida eng buyuk va zabardast hisoblangan Hektorni o'ldirding. O'shani deb sening huzuringga keldim. Hech bir foniylotning boshiga tushmagan baxtsizlikni boshdan kechirmoqdaman. Bolalarim qotilining qo'llarini o'pishga majburman..."*⁶

⁵ Н.А.Кун. "Қадимги Юнон афсона ва ривоятлари". - Самарқанд.: "Зарафшон" нашриёти, 2005 –йил - 177-б.

⁶ Ўша манбаа

Ushbu voqeada o'g'lidan ayrilgan nochor otaning kechinmalarini his qilishimiz mumkin. O'zi Troyaning buyuk shohi bo'lishiga qaramay, farzandi uchun o'z g'ururini poymol qilib, dushman qo'lini o'pishga ham tayyorligi tahsinga sazovor. Axill Priamning gaplaridan ta'sirlanib, o'z otasini eslaydi va yig'lab yuboradi. „„Priam o'zining so'zlari bilan Axillni o'z otasini eslashga majbur etdi. Axill otasini eslarkan achchiq alam bilan yig'ladi. Priam bo'lsa, yerga cho'zilib oldi-da, o'g'li uchun zor-zor yig'ladi. Nihoyat, Axill o'rnidan turdi. U Priamni turgizarkan, shunday dedi:

- *Ey baxtiqaro inson, Hayotingda ko'p g'am-alam tortgansan! Aytchi, o'g'illaringning ko'pini o'ldirgan odamning huzuriga kelishga, tag'in yolg'iz kelishga qanday jur'at etding? O, sening yuraging temirdan qattiq ekan. Lekin tinchlan, yig'ingni to'xtat, mana bu yerda o'tir. Xudolar dunyoda g'am-alam dardiga chidashni odamlarga nasib etgan, faqat ular, umriboqiylar qayg'u nimaligini bilishmaydi. Endi ko'z yoshi to'kma; halok bo'lgan Hektorni yig'laganing bilan tiriltirolmaysan-ku, axir... ”⁷*

Ko'rib turganimizdek, ikki dushman tarafning bir-biri bilan samimiy suhbat qurishi, kechinmalarini birga baham ko'rishiga sabab bo'lgan narsa otalik muhabbati va farzandlik mehri desak, yanglishmagan bo'lamiz. Antik davr adabiyoti Yunon-Rim afsonalarida xuddi shunday mavzular aks etgan asarlar yetarlicha topiladi.

Oilaviy munosabatlar haqidagi asarlarning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi o'ziga xosliklar, ayniqsa, ulardagi ota-ona va farzandlar xarakteri tasvirida yaqqol ko'rinadi. Xususan, xarakter badiiy asar g'oyasini belgilashda, uning ruhi va pafosini ifodalashda katta o'ringa egaligi bizga sir emas. Mashhur adabiyotshunos olim Naim Karimovning quyidagi fikrlari bu borada juda ahamiyatlidir: “Xarakter – tarixiy kategoriya hamdir. Buning ma'nosi shuki,

⁷ Н.А.Кун. “Қадимги Юнон афсона ва ривоятлари”. - Самарқанд .: “Зарафшон” нашриёти, 2005 –йил - 177-б.

har bir ijtimoiy-iqtisodiy davr o'z avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o'z aksini topadi".⁸

Demak, ijtimoiy va oilaviy munosabatlar, ajdodlar va avlodlar almashinuvi jarayonidagi dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan tafovutlar va obrazlar ishtirok etgan asarlar juda qadimiy tarixga va o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Bunday asarlardagi g'oya va qahramonlar holati davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta'sirida o'zgarib borgan.

So'zlarimizning isboti o'laroq, otalar va bolalar munosabati keyingi adabiyotlarda ham davom etdi. Bu mavzu keyinchalik Sofokl va Esxil tragediyalarida, Yevripidning "Medeya" asarlarida ham o'z aksini topadi. Unda otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatning turli shakllarini ko'rishimiz mumkin. Ularning asarlarida yuqoridagi asar voqealaridan farqli ravishda bu munosabatlar keskinlashgan, yoki tushunmovchilik va ziddiyatlarga to'la holatda aks etadi. Ularga keyingi bobimizda batafsilroq to'xtalamiz.

Ilk o'rta asrlar g'arb adabiyoti diniy tendensiya olganligi sababli otalar va bolalar munosabati yaqqol pafos bilan yoritilmadi. Asosan ritsarlik, qahramonlik va mashuqaga sodiqlik kabi mavzular yoritildi. Ilk o'rta asrlar adabiyotining taraqqiyotiga uch omil barakali ta'sir ko'rsatdi: 1. Xalq og'zaki ijodi. 2. Antik san'at. 3. Xristianlik dini. Bu bosqich adabiyotida uch ta yo'nalish mavjud edi va ular quyidagilardir: 1. Xalq adabiyoti. 2. Diniy-cherkov adabiyoti. 3. Feodal – ritsar adabiyoti. Yuqorida aytganimizdek, Ilk o'rta asrlar adabiyotida ijtimoiy hodisalar natijasida ritsarlik va qahramonlik mavzulariga asosiy e'tibor berildi.

Uyg'onish davridan boshlab asta-sekin insoniy munosabatlar gumanizm ta'sirida insonlarning o'zaro munosabatlari, oila, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi iliqlik yoki befarqlik, ular o'rtasidagi keskinlik kabi ko'rinishlar adabiyotda yaqqol aks ettirila boshlandi. Buning yorqin dalili sifatida buyuk dramaturg Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" tragediyasini keltirishimiz mumkin.

⁸Karimov N. „Janrmi yoki uslub“. – T.: Fan, 1991-yil – 82-bet.

Unda Qirol Lir va Graf Gloster taqdiri aks etadi. Ular ikki xil farzandlaridan ikki xil munosabat ko'radilar. Qirol Lir ikkita qizidan yomonlik ko'radi. Lekin u ikkala qiziga ham mehr bergan bo'ladi. O'zini haydab yuborgan kenja qizidan esa yaxshilik ko'radi. Glosterning ham ishongan o'g'li Edmund unga yomonlik qilsa, yomon ko'radigan o'g'li Edgir qiyinchilikka tushib qolgan paytda yordam beradi. Shu asarlarda ham otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar o'zining yangicha talqinini topadi.

Keyingi davrlarda klasittizm adabiyoti vujudga keldi. XVII asarda klassitizm adabiyoti yana antik davr adabiyoti an'analarini davom ettirganligi hamda mavzu ko'lami cheklanganligi uchun o'sha davr ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar asosan qadimgi Yunon va Rim dramaturglarining asarlarini qayta ishlash natijasida vujudga kelganligi uchun ularda pafos unchalik kuchli bo'lmadi. Buning ustiga, klassitizm adabiyoti suniyoq, toza va samimiy hislarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti haqida ko'p to'xtalib o'tirmaymiz.

XVIII-XIX asrlar ma'rifatparvarlik, romantizm va realizm adabiyotida tub burilish vujudga keldi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Bu davrlar adabiyotida ham otalar va bolalar munosabati o'zida aks etgan bir qator asarlar vujudga keldi. Ular orasida o'sha davr muhitidan kelib chiqib, otalar va bolalar munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini ochib bergan Balzakning "Gorio ota"sini olaylik. Bu asarda ko'proq oila munosabatlarning yemirilishi ko'rsatiladi. Bunda tanqidiy realizmning buyuk namoyondasi Balzak jamiyatdagi manfaatparastlik avj olib ketayotganligi, mansab, pul, boylik uchun insonlar eng ezgu his-tuyg'ularning yemirilishi sababli xatto ota-onadan ham kechish holatlari ko'plab sodir bo'layotganini o'z asarida ustalik bilan yoritib beradi. Gorio ota o'z qizlarini hech narsaga zoriqtirmay ulg'aytiradi. U qizlari uchun bor mehrini, umrini berdi. Bor boyligini qizlarinig istaklari yo'lida sovurib, hatto yashab turgan uyini ham sotib ketishga majbur bo'ladi. Gorio ota qizlarini shu qadar yaxshi ko'rardiki, qizlarining og'zidan chiqqanini muhayyo qilib beradi. Ohir-oqibat u qizlaridan nima ko'rdi? Gorio ota o'lim to'shagida yotib, qizlarini bir bor ko'rishni xohlaganida qizlari

otasining o'layotganligini bilib turib ham shon-shuhrat uchun, obro', dabdaba uchun o'zlarining "muhim" ishlarini otasining so'nggi xohishidan ustun qo'yib, arzimagan bahonalarni ro'kach qilib borishmaydi. Endi e'tiborimizni asardagi quyidagi o'rinlarga qaratsak: *"Xotini o'lgandan keyin bolalariga bo'lgan mehr-muhabbat telbalik darajasiga yetdi. Xotinining o'limi tufayli chuqur iztirobga mahkum etilgan qaynoq muhabbatini u farzandlariga qaratdi. Qizlari ham dastlabki paytlarda ota muhabbatiga muhabbat bilan javob berib yurdilar"*.

Ushbu parchada ko'rinadiki, jonidan ortiq ko'rgan xotini favot etgandan so'ng ota barcha mehr-muhabbatini ikkalalarining muhabbat mevasi bo'lgan ikki qizi, Anastazi va Delfinaga bahshida etadi. Keksa avlod vakili bo'lgan Gorioda o'zining taqdiri ikkinchi darajaga tushadi. Uning qizlari uchun hamma narsaga tayyor ekanliklarini quyidagi parchada guvohi bo'lamiz:

"Ikkala qizining tarbiyasi juda bemani olib borilgani o'z-o'zidan ma'lum. Yiliga oltmish ming frank daromad qilishiga qaramay, Gorio o'ziga bir ming ikki yuz frank ham sarflamasdi, lekin qizlarining har bir istagini joyiga yetkazishni baxt deb bilardi: qizlariga eng yaxshi murabbiylar hamma sohadan saboq berishardi; qizlarni kompanonka nazorat qilib turardi, bularning baxtidan bo'lib, u aqlli va didli xotin edi. Qizlar ot minib sayrga chiqishar, o'z aravalari bor edi – qisqasi, ilgari vaqtlarda biror qari, badavlat amaldorning mahbubasi qanday dabdaba bilan kun kechirgan bo'lsa, qizlar ham shunday yashashardi; ular nimani xohlashsa, u buyum qanchalik qimmat turishiga qaramay, ota ularning istagini bajo keltirishga oshiqar, bu qilgan ishi evaziga qizlaridan faqat shirin so'z va mehr kutardi. Bechora, qizlarini farishtalar bilan tenglashtirib, bu qilmishi bilan qizlarini o'zidan ham yuqoriga qo'yar; uning uchun xatto qizlarining qilgan yomonliklari ham aziz edi".⁹

Muallif tili bilan aytilgan *"Ikkala qizining tarbiyasi juda bemani olib borilgani o'z-o'zidan ma'lum"* degan jummalarga e'tiborimizni qaratsak. o'sha davr tarbiyasi shuni taqazo etardi. Ota-onaning asosiy yutug'i farzandlarini jamiyatga

⁹ Оноре Балзак. "Горио ота" Т.: - Гофур Фулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968- йил 296 б.

qo'sha olish edi. Bu jamiyatda esa dabdababozlik va manfaatparastlik avj olgan edi. Xatto inson taqdirini ham pul hal qilardi. Gorio ota ham o'zining yillar davomida misqollab yig'gan boyligini farzandlarining xursandchiligi hamda lahzalik baxti uchun ayamay sarflaydi. Ulardan esa arzimagan shirin so'z va mehr kutadi, xolos. Lekin qizlari shu arzimagan narsani bera olishdimi? Ha, bera olishdi, ammo o'zlarining manfaati uchun, otasidan biror narsa undirish uchun. "Beli og'imaganning non yeyishini ko'r" deganlaridek uning qizlari otasidan olgan pullarni ko'ngil xushliklari, qimmatbaho taqinchoqlar va shohona hayot uchun sarflashdi. Gorio ota o'limi oldidan xatto kafanlikka ham puli qolmaganiga qaramay, o'shanda ham qizlarining muammolarini hal qilish uchun o'g'irlik qilib bo'lsa-da, pul topib berishga tayyor ekanligini ko'ramiz. Ular shuncha yil mehr-muhabbatini, bor-yo'g'ini, xatto jonini ham ayamagan otasiga ehtiyojlarini qondiruvchi pul manbai sifatida qarashardi.

O'sha davr ijtimoiy hayotidagi kapitalist va burjua o'rtasidagi farqlar, odamlarning manfaatparastlik va shon shuhratga berilib ketganligi, bu yo'lda eng ezgu tuyg'ulardan ham voz kechib, faqat fikr-u xayoli boylik orttirish bo'lib qolganini, oilasidagilar qashshoq hayot kechirishiga qaramay, odamlar qarzga botib bo'lsa ham, boshqalarning e'tiboriga tushish uchun har xil ball va dabdabalarga berilib ketganini Balzak shu asarida yana boshqa qahramonlar misolida ham ochib beradi.

Gorio o'lim to'shagida yotib, qizlarini so'nggi bor ko'rishni xohlaydi va tutingan o'g'li Ejendan ularga xabar berishini iltimos qiladi. Ejen Gorioning katta qizi Anastazining oldiga borib, shu xabarni yetkazganida u o'zining katta muammolari bilan band ekanini, shu sabab bora olmasligini, otasiga aytsa, otasi uni tushunishini aytadi.

" - Afandim, men hamma gapni eshitdim. Agar otam qanday ahvolda ekanimni bilsa, meni kechirgan bo'lardi; shuni unga aytib qo'yarsiz. Men bunday azoblarga qolarman deb o'ylamagan edim, bunga bardoshim yetmaydigan ko'rinadi, ammo oxiriga qadar qarshilik ko'rsataman, - dedi u

eriga. Men onaman..! Otamga aytib qo'ying, chetdan qaraganda shunday ko'rinsa ham, ammo ta'na-malomatlardan holiman! Deb qichqirdi Rostinyakka dilxastalik bilan".¹⁰

Qaysi inson bolasi o'z otasining o'lim to'shagida yotganini eshitib, o'zining arzimagan muammolari sabab bora olmasligi mumkin..? Uning ko'ngliga qanday qilib sig'ishi mumkin..? Gorioning kichik qizi Delfinaning oldiga so'nggi ilinj bilan borgan Ejen undan ham umid yo'qligini ko'radi.

" - Men, azizim, betobman, - dedi u. – Baldan qayta turib shamollab qolibman, zotiljam bo'lib qolmayin deb qo'rqib, vrachga odam yubordim...

- Bir oyog'ingiz go'rda bo'lganda ham, emaklab yurib borsangiz ham, otangizning tepasida bo'lishingiz kerak,- deb uning gapini bo'ldi Ejen. – U sizni aytib yubordi! Uning oh-u zorlaridan aqalli, zig'ircha bo'lsin eshitganingizda edi, kasalingiz tarqab ketardi..."¹¹

Buni qarangki, Ejenning shuncha gapini eshitib, "Albatta boraman, bormasam yaramaslik bo'ladi-ku..." degan Delfina baribir bormaydi. O'zining orniga kotibasini yuboradi.

O'sha davr shu qadar tubanlashib ketgan ediki, jamiyatda manfaatparastlik shu qadar avj olib ketgan ediki, bu muhit odamlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasdi. Uning qurboniga aylangan yangi avlod vakillarida insoniy tuyg'ular borgan sari ahamiyatsiz ko'rinish kasb etayotgan edi. Ushbu asarda ana shunday muammolarni Balzak ochib berishga harakat qildi. Bu o'tish davri adabiyotida katta yangilik edi. Insoniyat hayotida ba'zi axloqiy kategoriyalar davrlar, zamonlar o'tishi bilan eskirib, iste'moldan chiqishi mumkin. Lekin shunday axloqiy kategoriyalar ham borki, ular na zamon, na davr, na yillar ta'siriga uchramay, muqim qolaveradi, bashariyatning doimiy hamrohi bo'lib yashayveradi. Bobil xarobalaridan topilgan to'rt ming yil avvalgi yodgorlikda

¹⁰ Оноре Балзак. "Горио ота" Т.: - Ғофур Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968- йил 296 б.

¹¹ Ўша манба

aytilishicha, “Hozirgi yoshlar badniyat, beg‘am, umrini bekor o‘tkazishga moyil toifadir”¹² deyilgan edi.

Otalar va bolalar munosabati rus adabiyotida ham yangicha ko‘rinish oladi. Rus yozuvchisi I.S.Turgenevning “Otalar va bolalar” (1862) romanida eski zamon kishisi bilan yangi maslaklarga ega bo‘lgan avlod o‘rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi. Arkadiy bilan do‘sti nigilist (lot. nihil-inkor) Bazarov hammani xatto otalarini ham inkor etish yo‘lidan boradilar. Ota – Nikolay Petrovich ham o‘g‘liga qarshilik qilolmaydi. Bu asarda avlodlar almashinuvi natijasida yangi qarashlar vujudga kelayotganini, eski avlod vakillari esa eski qarashlar bilan qolib ketganini ko‘ramiz. Shu tufayli ham otalar va bolalar o‘rtsida konflikt yuzaga keladi.

XX asrda yangicha qarashlar modernizm adabiyotida vujudga keldi va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, xatto ota-bola munosabatlari ham manfaat asosiga qurilganini Frans Kafka o‘zining “Evrilish” hikoyasida ochib berishga urinadi. Bu asar “Gorio ota” dan farqli ravishda otaning farzandiga nisbatan shafqatsizligi, adolatsizligi aks etadi. Kafka “Evrilish” hikoyasining bosh qahramoni, oilaning yagona boquvchisi Gregor Zamzani jirkanch qo‘ng‘izga aylantirib qo‘yadi. Nima uchun va qanday qilib, buni aytib o‘tirmaydi. Kafka faqat tajriba o‘tkazib ko‘radi. Farzandini jirkanch qo‘ng‘izga aylantirib qo‘ysam, shundan keyin ham ota-ona farzandini yaxshi ko‘rarmikin, deb faraz qilib ko‘radi. Yillar davomida oilasini boqib kelayotgan o‘g‘li qo‘ng‘izga aylanib qolganini ko‘rgan ota-ona avval uni davolatish harakatiga tushishadi. Ammo uning chorasi yo‘qligini tushunib yetgach, o‘g‘lidan jirkanishni boshlaydi. Unga oiladagilarning rizqini qiyayotgan yemaxo‘r deb qarab, oradan bir oy o‘tib-o‘tmay undan bezishadi va uni tezroq yo‘qotishni o‘ylashadi. Bil’aks, u qo‘ng‘izga aylanishidan oldin ota-onasi va singlisi hech qayerda ishlamasa ham, ularni hech narsaga zoriqtirmay boqayotgan, ularning doim mehr-muhabbatlariga sazovor bo‘lib kelayotgan g‘amxo‘rlari edi va uni nihoyatda qadrlashardi. U mahluqqa aylanib qolganidan so‘ng oila inqirozga uchray boshlaydi. Shunda ota o‘g‘lining holatidan tashvishlanish, unga dalda berish

¹² “Туркистон” газетаси. 2004 йил 19 январь.

o'rniga, endi biz qanday yashaymiz, degan havotirga tushadi va barcha aybni o'g'lidan ko'radi. Oxir oqibat jirkanch qo'ng'izga aylangan Gregor Zamza otasi yetkazgan jarohatdan qiynalib o'z xonasida o'lim topadi. Buni ko'rgan oila azolari o'zlariga ortiqcha yuk bo'layotgan mahluqdan qutilganiga quvonib o'sha kunni bayram qilishadi.

Jamiyatdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar, xatto ota-onaning farzandga bo'lgan mehri ham manfaatga asoslangan, agar farzand otaga manfaat bermay qo'ysa, undan voz kechishgacha, xatto o'limidan suyunishgacha borishini Kafka shavfqatsizlik bilan yoritdi. To'g'ri, biroz mubolag'a qilgan bo'lishi mumkin, lekin Kafkaning dunyoqarashi va o'sha davr, birinchi jahon urushining qonli oqibatlari, odamlardan shunday nafrat tuyg'usini uyg'otib qo'ygandiki, bu adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bunga misol, hozirgi hikoyamiz.

Demak, jahon adabiyotida otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ular o'rtasidagi muammolar aks etgan asarlar juda qadimiy tarixga va o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Bunday asarlardagi g'oya va qahramonlar holati davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta'sirida o'zgarib borgan.

1.2. O'zbek adabiyotida ota va farzand masalasi

Barcha musulmon xalqlari kabi o'zbeklarda ham oilaviy munosabatlar tizimi, shu jumladan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar hamda farzand tarbiyasi an'analari, asosan, islom e'tiqodi negizida shakllantirilgan. Islom e'tiqodining asosiy manbalari – Qur'oni karim va hadisi shariflarda jamiyatda kishilar o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy – maishiy munosabatlarning shunday murakkab va takomillashgan dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmun-mohiyati barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Otalar va bolalar munosabati o'zbek adabiyotida ham turli ko'rinishlarda aks etadi. Demak, bugungi adabiyotda mavjud bo'lgan otalar va bolalar muammosining ildizlari xalq og'zaki ijodining turli janrlari, qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar hamda mumtoz adabiy merosga borib taqaladi. Shu bilan birga, adabiy-madaniy aloqalar ta'sirida muammoning badiiy talqiniga jahon adabiyoti namunalarining ham ta'siri bo'lgan va bo'laveradi.

O'zbek xalq ertaklari orasida ham donishmand otalar, ota niyatini amalga oshirib, murod-maqсадlariga yetgan oqil farzandlar, ota vasiyatlari, o'git va nasihatlariga amal qilmay rasvoyi olam bo'lgan noshud o'g'illar, otalari bir, lekin boshqa-boshqa onalardan tug'ilgan farzandlarning yoki bir ota, bir onadan yaralgan zurriyotlarning bir birlariga va o'z ota-onalariga turlicha bo'lgan munosabatlari aks etgan ibratli namunalar ko'p uchraydi. Ertaklarda ota-ona va farzandlar munosabati masalasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik ertaklarda bosh qahramon xulq-atvorining qanday bo'lishi sababi u qanday oilada tarbiya ko'rgani bilan izohlash mumkin. Erka-tantiq bo'lib tarbiyalangan farzandning voyaga yetgach, o'z ota-onasiga ham pand berishi yoki taqdiridagi qiyinchilik va kulfatlarga duch kelishi, ota-onaning yuzini yerga qaratishi, kambag'al, lekin halol ota-onaning farzandlari ulg'aygach esa ularni to'rga olib chiqishi, orzu-maqсадlariga yetkazishi kabi g'oyalar ochib beriladi. Ana shunday o'zbek xalq ertaklaridan biri "Uch og'a-ini botirlar"¹³ dir.

¹³ Ўзбек халқ эртақлари. Зумрад ва Қиммат. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – Б. 163-171

Bu ertakda ham otaning o'g'illariga bo'lgan iliq munosabati, muhabbatini, ham o'g'illarning otaga bo'lgan hurmat va sadoqatini ko'rishimiz mumkin.

Ertakdagi ota o'g'illariga shunday nasihat qiladi: "To'g'ri bo'linglar – bexavotir bo'lasiz, maqtanchiq bo'lmang - xijolat tortmaysiz, dangasa bo'lmang – baxtsiz bo'lmaysiz". Ota nasihati tufayli farzandlar yuksak axloqli, mustahkam irodali, qo'rqmas, jasur, bir - biriga mehr - shafqatli bo'lib ulg'aygan. Botirlarning ertak syujetidagi harakatlari, munosabatlarida axloq va odobning yuksak namunasini ko'rish mumkin. Ular bir ota, bir onaning farzandlari, bir manzil tomon birga safarga chiqadilar va murod-maqсадlariga yetadilar. Aksincha, "Bulbuligo'yo"¹⁴ ertagida esa uch og'a-inilarning o'z otalariga bo'lgan munosabatlari, mehri, sadoqati, mas'uliyati xulqidan, gap-so'zi-yu, xatti-harakatidan anglashilib turadi. Bu ertakda ham xuddi "Uch og'a-ini botirlar"dagi singari uch aka - uka ota topshirig'ini bajarish uchun safarga chiqadilar. Ammo yomon xulqlari sababli maqsadlariga yetolmaydilar.

Xalq og'zaki ijodi namunalridan otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar "Go'ro'g'li" turkumi, "Alpomish", "Ravshanxon" dostonlarida ham, rivoyatlar, afsonalar, og'zaki hikoyalar singari folklor janrlarida ham o'ziga xos milliy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bularning barchasi xalqimiz o'z hayotida ro'y berayotgan, yoki berishi mumkin bo'lgan turli-tuman muammolarni xalq og'zaki ijodi namunalarida aks ettirib, avlodlarni ogohlantirganligini ko'rsatadi. Biz bu dostonlar ichida ota-bola munosabati o'zgacha talqin etilgan "Ravshanxon" dostoni misolida ko'rib chiqamiz. Haqiqiy o'zbekona ruh ufurib turgan bu dostonning o'ziga xosligi shundaki, unda oila munosabatlari, ayniqsa ota va bola munosabatlariga zamon va makon hech qanday ta'sirini ko'rsatmaydi. Bu munosabatlar samimiy va iliq ko'rinish kasb etadi.

Ravshanxon o'z baxtini qidirib, olis safarga o'tlanadi. Hasanxon esa o'g'lining ahvolidan havotir olib, uni bu yo'ldan qaytarish uchun yo'lini to'sadi. Shu payt ota-bola o'rtasidagi bo'lgan suhbatga e'tibor qaratamiz:

¹⁴ Ўзбек халқ эртаклари. Зумрад ва Қиммат. – Т.: Ўзбекистон, 1990. –Б. 285-296

Sen bo'lmasang, otang holi ne kechar?
Sensiz menga falak kafanto'n bichar,
Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar sho'r enang nochor,
Hama yo'g'-u borim, senga yo'l bo'lsin?
Menga aytgin ko'nglingdagi o'yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni, qaytarmayman ra'yingni,
*E, yolg'iz shunqorim, senga yo'l bo'lsin?*¹⁵

Yuqoridagi parchada mard otaning farzandidan ayrilish chog'idagi his-tuyg'ulari ifoda etiladi. Shunda ham u o'g'lini qattiqqo'llik bilan to'xtatmaydi. Uning niyatini, xohshini so'raydi. Ota bo'la turib o'g'lini qiynayotgan narsadan bexabarligidan o'kinadi.

*“Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi g'olib kelib, nima derini bilmay o'ylanib turib edi, axiri bo'lmadi. Otasiga gapirmay o'tsa, u ham bo'lmaydi, gapiray desa, uyaladi”.*¹⁶

Farzandning otaga bo'lgan hurmati, sadoqati shu o'rinda aks etadi. Ushbu parchani o'qir ekanmiz ko'z oldimizda yaxshi tarbiya ko'rgan, otaning gapini ikki qilmaydigan, otasiga bazi gaplarni aytishdan andisha qiladigan farzand gavdalanadi.

Ravshanxonning shashtidan qaytmasligini ko'rgan Hasanxon unga rozilik bildirib, oq fotiha beradi va yo'l davomida hamroh bo'lsin deb o'z nasihatlarini qiladi.

Ravshanxon baxtini izlab uzoq Shirvon yurtiga yetib boradi. U yerda har xil sinovlarni boshidan o'tkazadi. Ohir-oqibat Qoraxon podshoh Ravshanxonni zindonga tashlab, uni qirq kundan keyin osmoqchi bo'ladi. Hasanxon bu xabarni

¹⁵ 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q. Yo'ldoshev, B. Qo'simov, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. - T.: «Sharq», 2013.- 368 b.

¹⁶ O'sha manbaa.

eshitib, otasining g'irko'k otiga minib, qirq kunlik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. U yerga borib dushmanlarning dodini beradi.

Bu doston asli ishqiy-sarguzasht dostoni bo'lishiga qaramay, unda ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat, axloqiy tarbiya masalalari aks etadi.

O'zbek adabiyotida otaga bo'lgan hurmat, ota Xudodan keyin turuvchi muhtaram zot ekanligi juda ulug'langan bo'lib, bu o'zbek xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. "Otang cho'chqa bo'lsa ham, boylab boq", "Otang yotgan uyning tomiga chiqma", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Ota rozi - xudo rozi"¹⁷ lar shular jumlasidandir.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida oila va ota-bola munosabatlari xalqning idealidan kelib chiqib, samimiy, iliq va ezgu his-tuyg'ularga yo'g'rilgan holda ifoda etilgan, yoki shunday bo'lishi kerak degan g'oya ilgari surilgan. Yozma adabiyot shakllana boshlagandan so'ng, bu munosabatlar hayotiylik kasb etib, ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi ziddiyatli muammolar hamda shu munosabatlarning darz ketishiga sabab bo'lgan davr va muhit ta'sirini yoritilishi aks eta boshladi. Dastlabki adabiyotlarda bunday holatga yo'l qo'ymaslikka undovchi pand-nasihat ko'rinishida namoyon bo'ldi.

Bu ko'hna muammo Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi", Rabg'uziyning "qissasi Rabg'uziy" asarlarining bosh mavzularidan sanalgani ham og'zaki va yozma badiiy tafakkurning ibtidosidan boshlab katta ahamiyat kasb etib kelayotganligini isbotlaydi.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida ota va bola o'rtasidagi muammoning yuzaga kelmasligi uchun zarur bo'lgan tarbiya masalasiga urg'u beradi:

*Ota pandiga sen tugal qil amal,
Yurarsan bo'lib baxtiyor har mahal.*

¹⁷ Ўзбек халқ мақоллари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. –Б. 164-166.

*Otangni, onangni sevintir tamom,
Bu xizmat yetirgay tilakka tugal.*¹⁸

Yozma adabiyot rivojlana borgan sari muammolar badiiy asarlarga ham koʻchib, aniq timsollar orqali ifodalandi, Sharq adabiyotining ajralmas tarkibiy qismi boʻlgan oʻzbek mumtoz adabiyotida birorta namuna yoʻqki, unda otalar va bolalar muammosi u yoki bu darajada aks etmagan boʻlsin.

Muqaddas kitoblardagi diniy rivoyatlarni oʻzida aks ettirgan Rabgʻuziyning “Qissasi Rabgʻuziy” asarini olaylik. Unda ota va farzand munosabatlariga turlicha munosabat bildiriladi:

Rivoyat qilishlaricha, paygʻambar Ibrohim Xalilulloh budparast otasi Torixni bu yoʻldan qaytarishga urinadi. Lekin unga Allohdan otaga nisbatan nasihatda muloyimroq boʻl, degan vahiy keladi.

Yana bir rivoyat. Yusuf alayhissalom otasi Yaʻqub alayhissalomni Misrga olib kelishlarini buyuradi. Huzuriga kelgan otasi bilan otdan tushmay koʻrishganligi uchun Alloh undan norozi boʻlib, uni boshqa paygʻambarlardan yetmish yil keyin jannatga kiritadi.¹⁹

Boshqa rivoyat. Nuh alayhissalom bir kuni soya joy topib uxlab yotardi. Oʻgʻillari uning atrofida oʻz ishlari bilan band edilar. Shu topda shamol koʻtarilib, Nuh alayhissalomning avrati ochilib qoldi. Buni koʻrgan oʻgʻli Hom qah-qah otib kuldi. Nuh alayhissalom uygʻonib, Homning adabsizligidan jahli chiqdi va “yuzing qora boʻlsin” deb duoibad qildi. Otaning ana shu qargʻishi oqibati oʻlaroq, Homning yuzi qoraydi va uning naslidan paygʻambarlik uzildi.²⁰

Yusuf haqidagi rivoyatda oilaviy munosabatlar, otaning oʻgʻillariga, akaning ukaga boʻlgan munosabatlar yorqin koʻrinish kasb etadi. Oʻz oʻgʻlidan ayrilgan otaning iztiroblari aks etadi. Chiroyda tenggi yoʻq Yusuf alayhissalomning otasi Yaʻqub alayhissalom oʻgʻlidan ayrilganiga chiday olmaydi. Yigʻlayverib koʻzlari koʻr boʻlib qoladi. Bu voqea keyinchalik mumtoz adabiyotga ham koʻchib,

¹⁸ Toʻxliyev B. Abdurahmonova B. Adabiyot (majmua): Akademik litseylarning 1-bosqich oʻquvchilari uchun oʻquv qoʻllanma, - T.: “Bayoz”, 2016. – 224 b.

¹⁹ Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. 1-китоби.

²⁰ Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. 1-китоби; Асрор Самад. “Оқ (қ) падарлик”. – Т.: Фан, 2006.

gʻazallarda Yaʻqub va Yusuf yonma-yon talmeh sanʼati sifatida koʻp qoʻllanila boshladi.

Yoqub bikin koʻp yigʻidin qolmadi sensiz

*Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.*²¹

(Lutfiy)

Solib borma meni ey Yusfi husun

*Bu kun Yaqubdek bayt ul-xazanda.*²²

(Atoi)

Saʼdiy Sheroziyning didaktik mazmundagi mashhur asari “Guliston”dagi hikoyatlardan birida oʻgʻlining oqil va zebojamolligidan mamnun ota hamda nodon oʻgʻilning tilagi haqida soʻz boradi. *“Avvalgʻi holimda mening farzandim boʻlmas erdi. Oqshom va kunduz orzusida erdim. Haq taolodin tazarru va zorligʻ bila farzand talab etar erdim. Bu vodiya bir daraxt bordurkim, ulugʻ ziyoratgohdur. Barcha xaloyiq aning atrofigʻa borib hojatlari xudoyi taolodin tilarlar. Men ham ul daraxtning ostigʻa borub, necha oqshomlar oning tubida yuzumni ojizligʻ tufrogʻiga surtub tazarru niyozlar koʻrguzdum, to Haq taolo mundoq oqil va zebojamol farzandni menga ato qildi”. Oʻgʻli bu soʻzni eshitib, qoshidagi yorlariga ohista der erdikim: “Agar ul daraxtning qaysi yerda erkonin bilsam erdi, men ham onda borib duo qilgʻay erdum, to otam oʻlgʻay erdi”*²³

Buni qarangki, otaga Olloh tomonidan farzand berilgan, u bu inoyatdan mamnun boʻlsa, noqobil oʻgʻil esa padarining oʻlimini tilaydi.

Firdavsiyning “Shohnoma”sida ham koʻhna oʻtmishdagi avlodlar almashinuvi jarayonida voqe boʻlgan toʻqnashuvlar, ziddiyatlar va ularning

²¹ 8-sinf adabiyot: darslik-majmua. – T.: Gʻofur Gʻulom nomidagi nahriyot matbaa ijodiy uyi, 2014. 83-b

²² 10-sinf adabiyot: darslik-majmua/ B.Toʻxliyev [va boshq.], - T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 60-b.

²³ Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент, 1993. – 83-бет.

oqibatlari otalar va bolalar obrazlari orqali aks ettirilgan. Bu asardagi ushbu mavzu haqida keyingi bobimizda alohida to'htalamiz.

Alisher Navoiy davrida temuriylar saltanati inqiroz yoqasiga kelib, toj-u taxt uchun kurashlar avj olgan edi. Ota va bola munosabatlari juda keskin ko'rinish olgan, va buning natijasida davlat tanazzulga yuz tutayotgan edi. Bu hodisalar Navoiy ijodiga ham ta'sir etmay qolmadi. U ham zamonasida avj olgan ko'hna muammoning yechimiga javob izladi va uni yumshatish uchun harakat qildi. Quyidagi parcha shu yo'ldagi qadamlardan biridir:

*Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay.
Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.*²⁴

Alisher Navoiy hayotiy va ijodiy faoliyatida ota va bola munosabatini yaxshilash yo'lida juda ko'p asarlarida bu mavzuga alohida urg'u berib o'tadi. Bu yo'lda uning "Tarixi muluki Ajam", "Xamsa" asari, bu jihatdan, ayniqsa, uning "Hayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" dostonlari ahamiyatlidir²⁵

54 bobdan iborat dostonning uchdan biri (17 bobi) ota - bola munosabatlarini ifodalashga bag'ishlangan. Undan Navoiyning ajdodlar va avlodlar silsilasining davomiyligiga oid diniy - falsafiy, ma'naviy-axloqiy, badiiy qarashlarini anglab olish mumkin.²⁶

Navoiyning yana bir dostoni "Layli va Majnun"da ota va farzand munosabatlarining keskinlashgan holatini va otaning farzandini tushunmaslik holatlarining ilk ko'rinishlarini Layli va uning otasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Lekin yana shuni e'tiborga olishimiz lozimki, bu Navoiyning badiiy to'qimasi emas, arab xalq afsonalari asosida qayta ishlangan variantidir.

Ota va farzand munosabatlaridagi eng nozik kechinmalar Z.M. Boburning "Boburnoma" asarida ham aks etadi. Unda otaning farzandiga bo'lgan sof,

²⁴ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. – Т.: Фан, 1991-1993. 7,8,11-жилдлар.

²⁵ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. – Т.: Фан, 1991-1993. 7,8,11-жилдлар.

²⁶ Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

samimiy mehr-muhabbatini, farzandining sog'lig'i uchun o'z jonini Ollohga nisor qilishining guvohi bo'lamiz: "...dardlarg'a darmon budurkim, yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki Tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglimga keldikim, Muhammad Humoyun(ning) mendan o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zimtasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Halifa o'zga muqarrablardin arzg'a tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar "siz bu so'zni nechun tilingga kelturasiz. G'araz budurki, dunyo molidan yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas o'shal olmoskim, Ibrohimning urushida tushub erdi, Muhammad Humoyung'a inoyat qilib erdingiz, tasaduq qilmoq kerak. Tilg'a keldikim, dunyo moli uning evazig'a nechuk bo'lg'ay. Men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkil bo'lubdur.. Va andin o'tubdurkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturg'aymen..."²⁷ Bobur Mirzo shunday deb o'g'lining atrofida uch marta aylanib, uning dardiga shifo so'raydi. Shundan so'ng Humoyun darddan forig' bo'ladi va Bobur betob bo'lib yotib qoladi. Ko'p o'tmay vafot etadi.

Garchi "Boburnoma"da uchraydigan shu real tasvir tarixiy voqea hisoblansa-da, badiiy adabiyotdagi otaning farzandiga bo'lgan mehrini, farzandi uchun jonini qurbon qilishga tayyorligini yana bir misolidir.

O'zbek mumtoz adabiyotida bu mavzu turli xil ko'rinishlarda, asosan, otaga bo'lgan hurmat, farzandning azizligi pand-nasihat korinishida asarlarda ifodalandi. Bu holat XX asr boshlariga qadar davom etdi.

Otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga jadidchilik davriga kelib qarashlar o'zgardi. Jadid adabiyotida eski avlod bilan yangi avlod o'rtasida dunyoqarashdagi ziddiyatlar aks ettirildi va jamiyatdagi johillik, qoloqlik yoshlar, umuman millat fojeasiga olib kelinayotganligi ko'proq ota-onalarning johilliklari, farzandlarining his-tuyg'ulari bilan hisoblashmasligi kabi holatlar sabab ekanligi orqali ko'rsatib berishga urunildi. Jadidlar o'zbek adabiyotiga yangicha qarash olib kirishdi. Ungacha, yuqorida ko'rganimizdek, ota-onaning salbiy tomonlari, deyarli, ko'rsatilmagan, har qanday vaziyatda ham ota onaning so'zidan chiqmaslik, ular faqat farzandlarining baxtini o'ylashi kabi pand-nasihat ko'rinishidagi asarlar

²⁷Бобурнома: [Ўрта-ёшдаги мактаб болалари учун] / [нашрга тайёрловчи П. Шамсиев; Мухаррир А. Ўктам]. - Т.: Юлдузча, 1989 – 368 б.

mavjud edi. Jadidchilik adabiyotida esa reallik aks eta boshladi. Unda yoshlarning huquqsizligi, jamiyatda yosh avlodning fojeasiga kattalar sabab bo'layotganligi yoritildi. Jadid adabiyotining yirik namoyandalari Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hamza, A.Qodiriy, Cho'lpon kabilarning asarlarida ma'rifatparvarlik mavzusi otalar va bolalarning turli aspektdagi munosabatlarida gohida keskin ziddiyatlarga qorishiq holda aks etganligini ko'ramiz.

Bunga misol qilib Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot, yohud ishq qurbonlari" tragediyasini keltirishimiz mumkin. Unda bir ota o'z qizini ko'p xotinli qari Eshonga uzatmoqchi bo'ladi. Yana bir ota esa o'g'lining xohish istaklari bilan hisoblashib o'tirmay, uning kelajagiga bolta uradi. Asar qahramonlari Mayramxon va Mahmudxon o'sha davr va ota-onaning johilligi qurboniga aylanadi.

To'g'ri, bu qasddan bo'lmasada, qaysidir ma'noda farzandlarning fojeasiga olib kelishi farzandkushlikning ilk ko'rinishlari edi, desak adashmagan bo'lamiz. Jadidchilar ko'proq millat fojeasini ko'rsatish hamda millatni taraqqiyotga olib chiqish uchun xatto ota-onalarning johilligini ham tanqid qilib chiqishdi. Ota-ona naqadar mo'tabar zot bo'lmasin, ularning ham salbiy illatlarini ko'rsata boshlashdi. Buning yorqin namunalaridan yana biri deb Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Razzoq so'fi, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi O'zbekgoyim, Behbudiyning "Padarkush" dramasidagi boy obrazlarini ko'rsatishimiz mumkin. Shu jumladan, jadid adabiyotida oilaviy munosabatlarga haqqoniylik va real ko'z bilan qarash va yosh avlod misolida Turkistonning kelajagini tasvirlash yuqori o'ringa chiqdi. Jadidlar ota va bola munosabatlarida tarbiyaning o'rnini juda muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham A.Avloniy o'z asarida insonlar tug'ilishdan yomon bo'lib tug'ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi, degan fikrlarni bildiradi. Yuqoridagilar esa mustaqillik davriga kelib o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topib, yangi g'oyalarga ham sababchi bo'ldi.

Lekin keying davrlarda "sotsialistik realizm" metodi talablari, kommunistik partiyaning badiiy adabiyotga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ijod jarayoniga bevosita

aralashuvi, buyruqbozlik va ko'rsatmalar adabiyot va san'at asarlarining hayotiylikiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, qahramonlarni milliy zamindan ayirdi. Eng yomoni, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasini buzdi. Adabiyotda sohtalik va yana bir tomonlama qarash vujudga keldi. Shu boisdan otalar va bolalar muammosi ham uzoq vaqtgacha "kommunistik axloq normalari" asosida hal etilganligini aytish o'rinlidir.²⁸

"O'tgan asrning 20-30- va 40-yillarida adabiyotning asosiy e'tibori sotsializmning shonli yurishi, xalq xo'jaligini industrilashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, xotin-qizlar ozodligini tarannum etish, urushda sovet hukumatining g'alabasini kuylash bo'lganidan otalar sinfiy dushman sifatida qoralandi. Otalar izidan bormay, ularning ishlarini davom ettirmay, yangicha yo'ldan yurgan yoshlar asosiy qahramon qilib olindi. Natijada o'zbeklarning ham o'ziga xos Pavlik Morozovlari yetishib chiqdi".²⁹ Haqiqiy millatiga sodiq ijodkorlarimiz esa bu mavzuda sukut saqlashga majbur edilar.

Hozirgi davr adabiyoti ham og'zaki va mumtoz adabiyot unsurlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, ota va farzand munosabatlarga reallik va haqqoniylik tomonidan yondashilmoqda.

Dastlabki xulosamiz shu bo'ldiki, o'zbek adabiyotida ota va bola munosabatlari dastlab xalq og'zaki ijodida o'z aksini topadi. Ularda, asosan, dono va mard otalar hamda ota o'g'itlariga amal qilib kamolga erishgan farzandlar tasviri ifodalanadi. Biroq, asrlar o'tib, insoniyat tafakkurida ro'y bergan o'zgarishlar, jamiyat taraqqiyoti natijasida bu munosabat o'zgarib borgan. Mumtoz adabiyotda ham shu an'analar qaysidir ma'noda davom etganligini ko'ramiz. Jadid adabiyotiga kelib bu munosabatlar aks etgan asarlarda tub o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davr adabiyotida o'tgan asrning 70-yillariga qadar ota va bola munosabatlari ham sovet mafkurasining yo'rig'iga yurgan bo'lsa-da, Mustaqillik adabiyotida jadid adabiyotidagi g'oyalarni davom

²⁸ Кийикбоев Ф. Ўзбек насаида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

²⁹ Кийикбоев Ф. Ўзбек насаида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

ettirgan holda unga haqqoniy tus berila boshlandi. Eng asosiysi Sharq, xususan, o'zbek adabiyotida otalar va bolalar munosabati milliy an'analarga xos tarzda tasvirlangan.

II BOB. BADIY ASARLARDA PADARKUSH VA FARZANDKUSH OBRAZLARINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

2.1. Jahon va o‘zbek adabiyotidagi padarkush obrazlarining qiyosiy tahlili

Mana endi mavzuimizning eng asosiy masalasiga yetib keldik.

Nihoyat, jahon va o‘zbek adabiyotidagi padarkush obrazlarini qiyoslab tahlil qilamiz. Ajdodlar va avlodlar almashinuvi insoniyat hayotida doimiy ravishda ro‘y berishi tufayli otalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar butun jahon xalqlari ijtimoiy hayoti va adabiyotining bosh muammolaridan sanaladi. Adiblar va adabiyotshunoslar mazkur muammo sabablariga o‘zlari mansub bo‘lgan millat mentalitetidan kelib chiqib yondashadilar. Bu muammo rus va g‘arb adabiyotida nisbatan keng qamrovda tadqiq etilgan³⁰. Har bir davrda ajdodlar va avlodlar almashinuvi doim ham silliq kechavermagan. Bu munosabatlar ota va farzand o‘rtasida murakkablik va ziddiyatlarni keltirib chiqargan. Biz shu o‘rinda, hayotning badiiy ko‘zgusi bo‘lgan adabiyotda aks etgan ota qotiliga aylangan padarkush obraziga e’tiborimizni qaratamiz.

Jahon adabiyotida padarkush obrazining yorqin namunasini eng qadimgi, antik davr adabiyotida qadimgi yunon dramaturgi Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasida uchratamiz. “Mash’um ig‘volar to‘riga tushib qolgan, lekin hech narsadan xabari bo‘lmagan odamning fojeasi bu”.³¹ Asarda yurtning farovonligini o‘ylaydigan, qo‘l ostidagi xalqning g‘amini yeydigan adolatli shoh tasvirlanadi. Shaharga vabo tarqalib, qachonki, oldingi shohning qotilini topib shahardan quvmasa, kulfat yo‘q bo‘lmasligi ayon bo‘ladi. Shoh Edip yurtga kelgan kulfatni daf qilish uchun jonini qurbon qilishga ham tayyor ekanligini quyidagi o‘rinda ko‘rishimiz mumkin:

...Bordiyu u mening xonadonimda

Biron panoh topsa, men bo‘lsam sabab

³⁰ Лебедев Ю.В. Роман И.С.Тургенева “Отцы и дети”. - М.: Просвещение, 1982.

³¹ Софокл. Шоҳ Эдип. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979 – 14-б

*Qasamyod etayki, birinchi galda
Meni qatl etsangiz, roziman, rozi³².*

Shunday odil shoh bo'lishiga qaramay, u o'zi bilmagan holda og'ir gunohga botgan edi. Aslida, Edib o'z taqdiridan qochib, shu o'lkaga kelib qolgandi.

*Ammo mening sho'rlik yolg'iz boshimga
Ming balo, kulfatlar qildi bashorat:
Taqdirda onamga uylanarmishman,
U tuqqan bolalar jirkanch bo'larmish,
Otamning qotili bo'lar emishman.
Bunday bashoratki, eshitgandan so'ng,
Men uzlatga ketdim. Korinfdan uzoq,
Validamdan uzoq, otamdan uzoq,
Mudhish taqdirimdan qochdim uzlatga.(44-b.)*

Ammo taqdirdan qochaman deb taqdirining domiga tushgan Edip o'zi bilmagan holda shu balolarga giriftor bo'ladi. Bu bashorat Edip tug'ilgandayoq ma'lum bo'lib, uning haqiqiy otasi Lay o'g'lini o'ldirish uchun xizmatkoriga bergan, xizmatkor esa unga qo'li bormay boshqa mamlakatning cho'poniga berib yuborgan bo'ladi. Shoh Edip taqdiridan qochib Fivaga kelayotib, Fivaning hukmdori, ya'ni o'zining otasi Layga duch keladi va uni o'ldiradi. Lekin u Laynig o'z otasi ekanligini bilmaydi. Lay uning otasi ekanini bilishdan oldin, Edip shaharga kelgan baloda o'zidan shubhalana boshlaydi va qotillik tavsilotlarini xotini va onasi Iokastaga bayon etadi.

*Bir jarchi va bir chol menga duch keldi.
Jilovdor bilan chol zo'rlik ishlatib
Meni yo'ldan chetga hayday boshlashdi.
Jilovdor meni bir urganda, men ham
Dangal bir tushurdim jahl aralash.
Keyin o'tayotgan foytun yonidan
Cholning o'zi turdi nayza o'qtalib.
Bir dam o'tgani yo'q – gurzim zarbidan*

³² Софокл. Шох Эдип. – Т.: Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979 – 23-б

Shundan keyin, Edip elchidan ota deb yurgan odami Polib o'z ajali bilan vafot etganini eshitib, taqdirini o'zgartira olganidan quvonadi. Lekin taqdir o'z so'zini aytib ulgurgan edi.

Shoh Edipning qismati achinarli yakun topadi. U o'z otasini o'ldirib padarkushga aylanganini bilgach qattiq faryod solib yig'laydi va ko'zlarini o'yib oladi. Uning bu azobdan qanchalar qayg'uga tushganini, uning kechinmalarini quyidagi jumlar ochib beradi:

*O taqdir yo'limga tushgan chorraha,
Yodingdami o'sha tengsiz jinoyat?
Yodingdami qo'llarimdan tomgan qon,
Qalbim qoni, otam qoni, issiq qon?
Nega yorilmaydi bu yer, aytinglar,
Nimaga yutmaydi meni qa'riga!..(68-b.)*

Sofokl bu asarida taqdir hukmiga hech kim qarshi chiqa olmasligini, padarkushning achinarli qismatini o'sha davr talqinida mohirona ochib beradi. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy. Axir Edip otasini ataylab, bila turib o'ldirmadiku? Nima bo'lsa ham, uning qo'li o'z padarining qoniga belandi. U bilib o'ldiradimi, yoki bilmay, baribir, padarkush bo'lib qolaveradi.

Xuddi shunga o'xshash g'oya va obraz Sharq adabiyotining ulug' namoyondalaridan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida ham badiiy ifodasini topadi. To'rt ming yillik tarixni o'z ichiga olgan ushbu dostonda juda ko'p shohlar va shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar turli, samimiylik va sadoqat yoki ziddiyatli va keskin holatlarda aks etadi. Biz ulardan Zahhok va uning taqdiri bayon etilgan o'rinlarga to'xtalib o'tamiz. Dostonda Nayzadorlar cho'li unga makon bo'lgan Mardos ismli shoh haqida gap boradi. U juda xalqparvar, adolatpesha shoh bo'lib, nochorlarga ehson va yaxshilik qilishni kasb etgan edi. "tagi toza, o'zi ko'p yaxshi kishi" bo'lgan hukmdor Mardosning yakka-yu yolg'iz o'g'li Zahhok esa otasiga o'xshamaydi:

³³ Софокл. Шох Эдип. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979 – 44-б

*Bir o'g'li bor edi, misoli zahra
Mehru muhabbatdan dili bebahra.*

*Dunyo izlar edi nomi ham Zahrak
Dadil va yengiltak edi ko'p nopok.³⁴*

Bu nopoklikning ildizi Zahrakning ona tomonidan iblisga mansubligi hamda tarbiyaviy-axloqiy tomondan zaifligiga borib taqaladi. Shuning uchun ham Zahrak iblisning gapiga osongina quloq tutadi va o'zi bilmagan holda uning asiriga aylanadi.

*Bir kuni pok niyat bir insonsifat,
Dargohiga keldi iblis – kasofat.*

*O'spirin dilini toydirdi yo'ldin,
So'z bilan boshini aylantirdi jin.*

*Iblis so'zi unga juda xush yoqdi,
Kir niyatin bilmay, mehr ila boqdi.(71-b.)*

Zahrakning ishonchiga kirib olgan iblis uni jirkanch ishlar qilishga unday boshladi. Eng avvalo, otasini o'ldirib taxtni egallashini aytib, avraydi:

*Iblis der: “Ey nomdor, oqil pahlavon,
Ne uchun taxt uzra boshqa bir inson?*

*Seningdek o'g'ilga ota ne hojat,
Quloq sol pandimga aytay bir hikmat.*

*Bu dargoh jilovin olgil qo'lingga,
Taxtu toj muntazir sening yo'lingga.(72-b.)*

³⁴ Абулқосим Фирдавсий. “Шохнома” достони. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975 й. 71-б.

Iblisga batamom inon-ixtiyorini topshirib qo‘ygan o‘g‘il unga sovuq shabodani ham ravo ko‘rmaydigan, undan hech narsasini, xatto jonini ham ayamaydigan o‘z otasini o‘ldiradi:

*Yomonliqqa ketdi farzandi uning,
Nomusni unutdi payvandi uning.*

*Otasi qoniga bulg‘ondi o‘zi,
Esga tushdi dono keksaning so‘zi:*

*“Farzand bo‘lsa hamki sher kabi go‘shna,
Otasin qoniga bo‘lmagay tashna...”³⁵*

O‘z nomusini vijdonini unutib otasining qoniga belangan Zahhok o‘sha onda pushaymonlik hissini tuygandek bo‘ladi. Keksalarning *“Farzand bo‘lsa hamki sher kabi go‘shna, Otasin qoniga bo‘lmagay tashna...”*, degan so‘zlari bir zumga yodiga tushadi-yu, yana tarqab ketadi. Otasining qoni tekkan qo‘llari bilan tojni boshiga qo‘ndiradi. Uning qanday o‘lim topishi tushida bashorat qilinadi. Zahhok bu qismatni o‘zgartirishga qanchalik urinmasin, ohir-oqibat tushida ko‘rganidek otasini o‘ldirgan Zahhokdan xun olish uchun ahd qilgan Faridunning qo‘lida ayanchli o‘lim topadi.

Yuqoridagi ikki asarda ham o‘zlari istamagan holda o‘z otalarining qotiliga aylangan padarkush obrazlarini ko‘ramiz. “Shoh Eip” tragediyasida avvaldan Edipning qismatiga padarkushlik bitilgan bo‘lsa, “Shohnoma” dostonidagi Zahhokning ongini iblis egallab, uning qiladigan amalini belgilab bergani uchun padarkush bo‘ladi. Ular padarkushga aylanib, kechirilmas gunohga botganiga shak-shubha yo‘q. Lekin tanganing ikki tarafi bo‘lganidek, faqat ularnigina ayblay olmaymiz. Ularning otalari ham bu mash‘um qismatning sababchilaridan desak yanglishmagan bo‘lamiz. “Shoh Edip”dagi Lay taqdirga tan berib, farzandini o‘limga buyurmaganida bunday hodisa sodir bo‘larmidi? “Shohnoma”dagi adolatli

³⁵ Абулқосим Фирдавсий. “Шоҳнома” дostonи. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975 й. 73-б.

shoh Mardos esa Zahhokning iymonini mustahkam qilib, ilmini ziyoda qilganida uning ko'nglini iblis egallab, jirkanch ishlarga majbur qila olarmidi? Biz yuqoridagi ikki asar voqealari misolida bilishimiz mumkinki, eng qadimgi badiiy adabiyotlarda ham otaning farzand tomonidan o'ldirilishi eng og'ir gunoh ekanligiga va bu gunohning badali juda ham og'ir ekanligiga urg'u berilgan.

Yoshlar bilan keksalarning dunyoqarashi har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Hamisha bu dunyoqarashlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lib turadi. Tarixdan ham bizga ma'lumki, otalar va bolalar o'rtasidagi qarama-qarshilik, ziddiyatlar turfa ko'rinishlarda – goh ijtimoiy-siyosiy, goh iqtisodiy, goh maishiy-axloqiy, goh g'oyaviy-mafkuraviy ko'rinishlarda voqe bo'lib, turli ko'lam va shakllarda tabaqalar, guruhlar, millatlar, hatto mamlakatlar o'rtasidagi mojarolar, urush- janjallar orqali hal etilgan. Binobarin, F.Kafka aytganidek, “O'g'ilning otaga isyoni adabiyotning eng qadim mavzusi va dunyoning eng ko'hna muammolaridandir”³⁶

Ota va farzand o'rtasidagi ziddiyatlar, noqobil farzandlarning otalariga qilgan isyoni tasvirlarini jahon adabiyoti durdonalaridan Uilyam Shekspirning “Qirol Lir” tragediyasi hamda o'zbek adabiyoti namunalaridan Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” tragediyasidagi o'xshash taqdirlar va padarkush obrazlari talqinida ko'rib chiqamiz.

V.Shekspir “Qirol Lir” (1605 yil) asarida chirib borayotgan feodal olamining inqirozini oilaviy munosabatlar, otalar va bolalar o'rtasidagi keskin ziddiyatlar oqibati bilan bog'laydi. Chunki tug'ilib kelayotgan kapitalistik munosabatlar, boylikka o'chlik insonlar o'rtasidagi eng nozik rishtalar – qarindoshlik, oila, otalar va bolalar o'rtasidagi aloqalarni ham yemirib tashlaydi. Otalar va bolalar munosabatida shaxsiy manfaat birinchi o'ringa chiqa boshlaydi.³⁷

Maqtovlarni xush ko'ruvchi Qirol Lir barcha mol-mulkini tilyog'lama va hiylakor ikki katta qizi, Gonerilya va Reganaga bo'lib beradi. Tili bilan dili bir

³⁶ Кафка Франц. Замок. Новеллы и притчи. –М., Политиздат, 1991. – С. 550.

³⁷ Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

bo'lgan sadoqatli va mehribon kenja qizi Kardeliyani esa to'g'ri va dildan, maqtovsiz aytgan gap uchun merosdan mahrum qilib, mamlakatdan haydaydi.

Merosga ega bo'lgan qizlarining davlatidan ajralgan ota – Lirga nisbatan munosabati tez o'zgaradi. Avvallari Lirni “otajon”, “otaginam” deb ulug'lab yurgan mehribon qizlari otasining boyliklarini qo'lga kiritgandan so'ng uni “chol”, “esi past”, “jinni” deb haqorat qila boshlashadi. Otaga qaramlikdan qutilgan katta qizlari uning talablariga bo'ysunmay, ota ustidan hukmlarini o'tkazishga kirishadilar. Oqibatda, ota darbadar bo'ladi. Ko'rinadiki, fojeada bosh konflikt tarzida berilgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyat namoyon bo'ladi. Fransiya shaxzodasiga turmushga chiqqan Lirning kichik qizi Kardeliya otasining ahvolidan xabar topib, fransuz qo'shinlari bilan yordamga keladi. Lirning sodiq xizmatkorlaridan Kent va Gloster ularga yordam beradi. Nobakor qizlaridan zulm ko'rib, badarg'a qilingan qirol Lirning iztiroblari quyidagi o'rinda o'z ifodasini topadi:

Barcha sezgi o'tmaslashib qolgan bo'ladi:

Va bu sanchiq(yuragini ko'rsatib)

Qizlarimning ko'rnamakligi.

Bu ish xuddi butun umr to'ydirib kelgan

Qo'lni og'iz tishlaganga o'xshab ketadi.

Biroq qasos olaman man. Yo'q. Yig'lamayman!

Shunday kezda meni quvlab chiqardilar-a!

Quyaver-ey, quyaver-ey, chidab beraman!

Shu kecha-ya! Sen Regana! Gonerilya!

Otangiz-ku, sizni jondan sevuvchi edi,

*Bor davlatin ikkingizga bo'lishib berdim!*³⁸

Asar so'nggida fransuz qo'shini bilan birga qirol Lir o'z qizlari va kuyoviga qarshi jang olib boradi. Bu jangda qirol Lir mag'lubiyatga uchraydi va kichik qizi Kardeliya bilan dushman qo'liga asirga tushadi. Lirning katta qizlarini qarmog'iga ilintirib olgan Emund ularni qamab, bir ofitserga pinhona o'ldirish haqida buyruq

³⁸ Вильям Шекспир. “Қиrol Лир”. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981 й. 106-б.

beradi. Asarning kulminatsiyasi mana shu joyda boshlanadi. Lirning noqobil qizi Gonerilya singlisi Reganaga zahar berib o'zini o'ldiradi. Lirning kichik qizi ham Edmundning topshirig'i bilan xufyona osiladi. Qirol Lir bunday xo'rlik va iztiroblarga dosh berolmaydi. O'zining sodiq va mehribon kichik qizining jasadi yonida jon beradi.

Shekspir o'zining asarida o'sha davr muammolarini, ota va farzandlar o'rtasidagi konfliktlarni va bu fojeaga sabab bo'lgan omillarni turfa qahramonlar misolida va murakkab sujet asosida ochib beradi.

Asarda yana bir ota va farzand munosabatlari aks etgan sujet linyasi bo'lib, bu qirol Lirning sodiq xizmatkori Gloster va uning o'g'illari Edmund va Edgard munosabatlaridir. Edmund akasi Edgarni tuxmatlar bilan otasiga qarshi qilib qo'yadi. O'zi esa qirol Lir va otasining dushmani, ya'ni Lirning katta qizlari va kuyovlari bilan til biriktirib, otasining boylik va mansabiga ega chiqish uchun uning o'limini xohlaydi. Uni dushmanga tutib berishni ko'zlaydi:

*“Agar men uni qiroлга yordam qilayotgan vaqtida topa olsam, bu ish shubhalarning tasdiqi uchun ma'qul bo'lar edi.(Kornuelga) Men o'z vazifam buyurgan ishdan qittak ham chetga chiqmayman, garchand vazifam bilan ota hurmati o'rtasida bo'lgan kurashda nasldoshlik qonining ovozi daxshatli bo'lsa ham.”*³⁹ Ko'rinadiki, boylik va mansabga ko'ngil qo'ygan o'g'il bu yo'lda u otasini o'z qo'llari bilan o'limga ro'baro' qilishga ham tayyor. Edmundning otasini qo'lga tushirish rejasi muoffaqiyatli yakun topadi. Kornual Glosterning ko'zlarini o'yib oladi. Edmund esa bu jazoni amalga oshirilishini ko'rmay deb chiqib ketadi. Bu holat choparning Albaniga aytgan so'zlarida bayon etiladi: *“Albatta-da, janob oliy, otasin chaqqan va bu og'ir jazolarga halal bermay deb uydan qochgan uning o'zi”*.⁴⁰ Uning so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, Edmund otasini shunday baloga giriftor qilib, o'zi otasiga achinganidan, qilgan ishidan pushaymon bo'lganidan emas, o'sha og'ir jazoning amalga oshirilishiga halal bermay deb uydan qochadi. Edmundning noqobil va o'z otasini o'ldirishga tayyor razil ekanligiga sabab uning

³⁹ Вильям Шекспир. “Қирол Лир”. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981 й. 117-б.

⁴⁰ Вильям Шекспир. “Қирол Лир”. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981 й. 142-б.

nikohsiz dunyoga kelganligiga Shekspir urg'u berib o'tadi. To'g'ri, u otasini o'ldirmadi, yoki o'ldirtirmadi, lekin o'limdan ham og'ir jazoga giriftor bo'lishiga, uning qoni to'kilishiga sababchi bo'ldi. Bu esa padarkushlikning bir ko'rinishi edi.

Endi esa Maqsud Shayxzodaning tarixiy haqiqatga asoslangan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda temuriylar davlatining tanazzul yoqasiga kelib qolgan, temuriy shaxzodalarning taxt uchun kurashlari avj olgan davr voqealari aks etadi.

Unda asosan ota va bola munosabatlari va Ulug'bek fojeasining sabablariga urg'u beriladi. Asarda Ulug'bekning nobakor o'g'li Abdulatifda otasiga bo'lgan nafrat ildiz ortib ulgurgan edi. Abdulatif o'zini voyaga yetkazgan buvisi Gavharshodbegim va padari buzrukvori Ulug'bekka nisbatan mehrsiz bo'lib ulg'ayadi. Xudbinlik va toj-u taxtga o'chligi uning tabiatida bor edi. Bu haqda tarixchi olim Samarqandiy shunday yozadi: "Mirzo Abdullatif aslida o'zgaruvchan tabiatga ega bo'lib, "mahdi ulyo Gavharshod oqoga nisbatan behurmatlik yo'lini tutib, dushmanlik tariqida yurganligi va isyonga jazm qilgan". Shaxzodaning mana shunday tabiati asarda aks etadi va Ulug'bek Mirzo bilan ziddiyatining avj olishiga sabab bo'ladi. Shu orinda, ota o'g'il o'rtasida yuzaga kelgan kichik konfliktga e'tiborimizni qaratamiz:

U l u g ' b e k

Bu taaddi bas qilinsin! Darhol, tamoman.

Qishloq ahli qaytarilsin uy-uylariga!

Qaytarilsin molu anjom darhol va mutalaq.

A b d u l a t i f

*Amringizdan obro'yimga isnod keladi!...*⁴¹

Ko'rinadiki, Abdulatif ham otasi, ham hukmdori bo'lgan otasining qaroriga keskin va qattiq qarshilik ko'rsatadi. O'g'lining qilmishidan va so'zlaridan jahli chiqqan, Abdulatifning toju-taxtga o'chligini faxmlagan Ulug'bek uni valiahdlikdan ozod qilmoqchi bo'ladi. O'z o'g'lining xalqqa nisbatan shavfqatsizlik qilayotganini ko'rib o'g'lining obro'sini o'ylamay xalqqa yon bosishi Ulug'bekning

⁴¹ Мақсуд Шайхзода. "Мирзо Улуғбек", - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъати нашриёти, 1972-йил. 272 б.

nafaqat farzandlarining otasi, avvalo, xalqning otasi ekanligi, uning odil shohligini ko'rsatib beradi. Pushti kamaridan bo'lgan Abdulatifning juda ko'p qilmishlarini kechirib kelayotgani quyidagicha ifodalanadi:

Toju taxtga jazmanliging shunchalik zo'rmi?

Senga asli og'ir jazo bermoq kerakdi.

Ne qilayki, o'z pushtimdan kelgan farzandsan.

*Ota mehri ushlab turar jazoning dastin.*⁴²

Lekin Abdulatif otasini tushunmaydi. Taxtni qo'lga kiritish uchun otasining dushmanlari bilan til biriktirib Ulug'bekka qarshi isyon ko'taradi. Ota va o'g'il o'rtasida qattiq jang bo'lib o'tadi.

Abdulatif kela solib hamla qilganda

Sulton o'qni unga qarab mo'ljalladi-yu,

Ammo yana bir zum o'ylab o'qin uzmad.

"Shum zurriyod" deb o'qin sanchdi tuproqqa.

Sal qolgandi halokatga. Ilg'orlar arang

*Yovni to'sib, shahriyorni chiqardi jangdan.*⁴³

Ulug'bek o'g'li isyonchiga aylanib, unga qilich ko'tarib kelsa ham o'g'lini o'ldirishga qo'li bormaydi. Abdulatifda esa otasiga bo'lgan nafrat, mansabga bo'lgan o'chlik shu darajada ediki, otasining jonini olish payidan bo'ladi. Farzand unga borini, mehrini bergan, barcha qilmishlarini kechirib kelgan, o'zini dunyoga keltirgan otasini o'ldirishdan tap tortmaydi. Ota esa yoshlikdagi sho'xliklari, keyin esa og'ir qilmishlari bilan bezor qilgan, hozir esa davlatiga, otasiga isyon ko'targan o'g'ilni o'ldirishga o'ylanadi. Abdulatif jangda g'alaba qozona olmagandan so'ng, Samarqandni qamal qilib, otasidan taxtni o'z ixtiyori bilan topshirishni, buning evaziga shartlarini qabul qilishni aytadi. Ulug'bek ilojsiz rozi bo'ladi. O'zi esa safarga ketishni, unga to'sqinlik qilmasliklarini so'raydi. Ulug'bekning shartlarini Ollohning nomi bilan qabul qilgan Abdulatif "sobiq sulton va sobiq ota"sining ortidan suiqasd uyushtiradi. Xizmatchisi Abbosga otasini o'ldirish uchun o'z xanjarini beradi.

⁴² Мақсуд Шайхзода. "Мирзо Улугбек", - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъати нашриёти, 1972-йил. 272 б.

⁴³ Ўша манба.

*Bu hukmni shafqat qilmay ijro etgaysan,
Men ularning orqasidan chopar yuborib,
Bir vaj bilan pastqam joyda to'xtattiraman.
Sen hukmni bemurosa amalga oshir.
Jo'nab borgin! Mana senga xanjari shoshiy.⁴⁴*

Taxtni egallaganiga qanoat qilmagan Abdulatif otasidan biryo'la qutulishni istaydi. Chunki u taxtdan ayrilib qolishim mumkin degan havotirga tusha boshlagan edi. Abbos Abdulatifning buyrug'ini bajarib, u bergan xanjar bilan Ulug'bekning ko'ksiga xanjar uradi Ulug'bekni o'ldirgan bu xanjarda padarkush Abdulatifning ismi yozilgan edi. Padarkush Abdulatif esa taxtni olti oygina boshqara olgani va ayanchli o'lim topgani haqida tarix guvohlik beradi.

Yuqorida biz ikki xil padarkush obrazlarining guvohi bo'ldik. Shekispir va M. Shayxzoda bir davrda ijod qilmagan bo'lsalar-da, ularning asarlari, "Qirol Lir" va "Mirzo Ulug'bek" tragediyalarida bir-biriga yaqin davr voqealari aks etgan. Ikkala asarda ham mamlakat tanazzuli aks etgan bo'lib, bunga asosiy sabab qilib, odamlarning shon-shuhrat va manfaatparastlikka berilib ketayotganligi, oilaviy munosabatlarning yemirilishi ko'rsatiladi. Padarkush obrazlaridan biri Edmund otasiga nisbatan bunday riyokorlik va xoinlik qilishiga uning nikohsiz tug'ilganligi sabab qilib ko'rsatilsa, Abdulatifning otasini o'limga tab tortmay hukm qilishiga uning xudbinligi, taxtparastligi va, ayniqsa atrofidagi odamlarning ta'siri sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Yana shunga o'xshash g'oya va motiv aks etgan padarkush obrazlari o'zbek adabiyotidagi Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" tarixiy romanidagi Salim, Muhammad Alining "Tangri qudug'i" romanidagi Habashsulton va Elbarslon obrazlarida ham yorqin ifodasini topadi. Undagi noqobil farzandlar ham jazosini oladi.

Yuqoridagi tahlilimizdan shu xulosa keladiki, "Mamlakatni inqirozga olib keladigan dahshatli kuch bu o'zaro ichki kurashdir. Ayniqsa, bola otaga, aka

⁴⁴ Ўша манба.

ukaga, jiyan amakiga qurol ko'tarsa, buni Alloh ham, bandasi ham kechirmaydi, bunday kimsalar yer yuzida yashashga nomunosibdirlar".⁴⁵

Padarkush obrazi haqida gap ketganda, avvalo, bizning xayolimizga jadic adabiyoti namoyondalaridan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi keladi. Bu asarda ota va bola ortasidagi noxush munosabat tasviri orqali oqibati daxshatli fojea bilan tuggallangan muhim ijtimoiy-siyosiy muammo ko'tarilgan. "Asarda jaholat va nodonlik, o'qimagan o'g'il Toshmurodning buzuvchi yo'llarga kirib, o'z otasining o'limiga sababchi bo'lganligini hikoya qilish orqali dramaturg Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston o'lkasining inqirozga yuz tutayotganligini badiiy obrazlar misolida ko'rsatib beradi"⁴⁶. Asarda Toshmurodning yomon odamlarga qo'shib, buzuvchi yo'llarga kirib ketganligiga otasining o'z farzandining taqdiriga, uning tarbiyasiga loqayd bo'lganligi boyning domla bilan suhbatida aks etadi:

Domla. Shariat ilmi va zaruriyot dinni bilmoq uchun boyvachchani o'qutmak, albatta, sizga lozimdur.

Boy. Shariat ilmini o'qutmak ne lozim, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

Domla. Zaruriyoti diniyaga na dersiz?

Boy. Man o'zum besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilarman. O'zum o'rgaturman.

Domla. Xat va savodg'a na dersiz? Holbuki, savodi yo'q odam hech nimaga yaramaydur.

*Boy. Bu fikringiz g'alat, chunki mani savodim yo'q, bovujud shul shahrimizni katta boylaridandurman va har ishni bilarman.*⁴⁷

Ko'rinadiki, domla farzandlarni o'qitib, tarbiyali va ilimli qilish kerak deb ming gapirmasin, boy uning gaplariga quloq solmaydi. Ana shu baxs ustidan chiqib qolgan ziyoli ham boyga farzand tarbiyasi haqida gapiradi. Lekin u

⁴⁵ Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

⁴⁶ Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

⁴⁷То'хлиев В., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot(majmua): akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun. – T.: "Bayoz", 2016. – 9-b.

ziyolining gaplarini eshitishni ham istamaydi. U dunyoning izzati boylikda deb hisoblaydi. Ilmsizlik oqibatida buzuq yo'lga kirib ketgan Toshmurod o'rtoqlari bilan mayxonada "kayf" qilishmoqchi bo'ladilar va ularga ozgina pul yetmay qoladi. Toshmurod Davlatning taklifiga binoan tangriqul bilan o'z uyiga, o'atasining sandig'iga o'g'rilikka tushadilar. Shovqindan uyg'onib ketgan boy Tangriqulga tashlanadi, Toshmurod otasini ushlab qoladi va Tangriqul boyga pichoq urib boyni o'ldiradi. So'ngra ikkalasi pulni olib, qochib ketadilar. Uyga yugurib kirgan Toshmurodning onasi nobakor o'g'lining qilmishidan dod solib yig'laydi:

*Boybucha. Voy, zolim dastidan, bu qanday kun edi, voy, dod-ey! (Chapak chalar... Boy ustiga ozini tashlar, yuzu sochini yular). Hey, juvonmarg Toshmurod! qon qus, koshki chechakga ketayding. Hay, padarkush Toshmurod. Voy, dod-e-y!*⁴⁸

Shundan so'ng Toshmurod asarda ko'rinmaydi. Uning bu qilmishi sabab kechirgan hissiyotlari aks etmaydi. Lekin padarkush provardida o'z jazosini oladi.

Behbudiy bu asar misolida ilmsizlikning oqibati qanday fojealarga olib kelishini ko'rsatib beradi. Unda o'z farzandining taqdiriga mutlaqo beparvo, loqayd ota jaholat botqog'iga botgan Turkiston, o'g'li Toshmurod esa, uni yanada kuchliroq inqirozga olib kelayotgan yosh avlod qiyofasida namoyon bo'ladi. Bu haqda adabiyotshunos Y.Solijonov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Dramada Boyni o'g'li Toshmurod emas, uning ulfati Tangriqul pichoqlaydi. Ammo bu asarning "Padarkush", ya'ni ota qotili deb atalishiga xalaqit bermaydi. Aksincha, bu yerda umumlashma xulosa kuchayadi. Otaning o'limiga (keng ma'noda butun Turkistonning inqiroziga) o'g'ildagi (umuman yoshlardagi) johillik, norasolik, ilmsizlik, maishatbozlik, xudbinlik sababchi bo'ladi"⁴⁹.

Demak, yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, qaysi davrda, qanday holatda va qanday sabab bilan bo'lmasin, har bir davrda hamda barcha xalqlar adabiyotida padarkushlik qoralangan. Biz yuqorida ko'rgan jahon va

⁴⁸ To'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot(majmua): akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun. – T.: "Bayoz", 2016. – 9-b.

⁴⁹ Солижонов Й. Зулматдан нур кидирганлар. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 23.

o'zbek adabiyotlarida uch xil sabablar bilan padarkushga aylangan farzandlar qismatining guvohi bo'ldik. Bu asarlarda ham padarkushlikning qanchalik og'ir gunoh ekanligiga urg'u beriladi va otalarning farzandlar taqdiriga befarq qarash oqibati qanday bo'lishi haqida ogoh qiladilar.

2.2. Badiiy adabiyotda farzandkush obrazining ifodalanishi

Bizga ma'lumki, yosh avlod bilan keksa avlod vakillarining dunyo qarashi doim ham to'g'ri kelavermaydi. Ota-bobolar o'z farzandlarining faoliyatidan doim

ham qoniqavermagan. O‘z navbatida, yangicha qarashlar, yangicha xarakter bilan unib-o‘sgan yoshlarning ham ota-bobolari bilan murosasi kelishmagan. Buyuk Britaniyaning tarixiy-etnografik muzeyida saqlanayotgan, bundan olti ming yil muqaddam yozilgan yodgorlikda aytilishicha, “Hozirgi yoshlar ota-bobolaridek emas, ular axloqsiz, hayot qadrini bilmaydilar”⁵⁰ Biz yuqorda bolaning otaga bo‘lgan salbiy munosabatlari misolida davr fojeasining guvohi bo‘ldik. Endi esa otalarning farzandlariga bo‘lgan munosabatlari va otalarning farzandlari ustidan chiqargan hukmlari to‘g‘risida so‘z yuritamiz. Har bir millat adabiyotida bu munosabat ularning o‘z mentaliteti va milliy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda namoyon bo‘ladi.

Badiy adabiyotda o‘z farzandiga mehr ulashadigan, uning baxtu-kamolini istaydigan, farzadiga xatto sovuq shamolni ham ravo ko‘rmaydigan namunali otalar bilan bir qatorda, farzandini o‘z qo‘li bilan o‘ldirgan salbiy otalar obrazi ham o‘z ifodasini topadi. Nima uchun ota o‘z pushti kamaridan bo‘lgan farzandini o‘ldiradi? Nahotki, farzandini yaxshi ko‘rmaydigan, uning o‘limini xohlaydigan otalar ham bo‘lsa? Ular qanday qilib farzandining kushandasiga aylandilar, ularni nima majbur qildi? Bu savollarga quyidagi badiiy asarlar tahlili misolida javob topishga harakat qilib ko‘ramiz.

Farzandkushlikning eng qadimgi namunalari antik davr adabiyotida, Yevripitning “Medeya” tragediyasida uchraydi. Yasonning turmush o‘rtog‘i Medeya uning Glavkaga uylanboqchi bo‘lganini unga qilingan qattiq xaqorat deb biladi. Yasonni qattiq sevishiga qaramay undagi intiqom olish tuyg‘usi yasonni tovbasiga tayantirish maqsadidan qaytara olmaydi. Medeya Glavka va uning otasini o‘ldirib ham ko‘ngli joyiga tushmaydi. Uning maqsadi Yasonni yana ham kuchliroq iztirob chekishga majbur qilish edi. U bu maqsadda o‘zining ikki o‘g‘lini ham o‘z qo‘llari bilan o‘ldiradi. Medeyada rashk va intiqom alangasi farzandlariga bo‘lgan muhabbatidan ham kuchliroq edi.

⁵⁰ “Туркистон” газетаси. 2004 йил 19 январь.

Bu asarda, asosan, rashk va qasosning qanday fojealarga olib kelishi, bu tuyg'ular va ota onalarning xatolari sabab begunoh norasidalarining ham nobud bo'lishiga urg'u beriladi.

Farzandkush obrazining Sharq adabiyotidagi ilk namunasi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida uchraydi. Unda Eron va Turon zaminlari o'rtasida qattiq urush ketadi. Janglarning birida qahramonliklari bilan tanilgan Rustamxon va Uning o'g'li Suhrob o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Bir-birlari bilan ota-bola ekanliklarini bilmagan ikki pahlavon ayovsiz kurash olib boradilar. Va nihoyat, Rustamxon ayyorlik ishlatib Suhrobni mag'lub etadi. Suhrob esa o'limidan oldin otasi u uchun qasos olishini aytadi. Suhrobning gaplaridan Rustamxon uning otasi ekanligini anglaydi. Afsuski, kech bo'lgan edi. O'g'lini o'z qo'llari bilan o'ldirgan Rustamxon qattiq iztirob chekadi.

Endi esa farzandkush obrazlari asos qilib olingan, ota va bola munosabatlari asosiy o'ringa chiqarilgan asarlar tahliliga to'xtalamiz. Ularning bu holatga tushib qolishlariga sababchi bo'lgan omillarni tahlil qilamiz.

Farzandkush obrazining yorqin namunasi jahon adabiyoti namunalaridan fransuz yozuvchisi Prosper Merimening "Matteo Falkone" hikoyasida aks etadi. Hikoyadagi voqea Korsika orolida bo'lib o'tadi. Hikoya qahramoni Matteo Falkone kuchli, qudratli va mag'rur inson edi. Asarda u haqiqiy korsikalik, kuchli xarakterga ega nomusli inson deb ta'riflanadi. Uning o'g'li Fortunato esa oilasining yagona umidi hisoblanadi. Matteo xotini bilan mollaridan xabar olish uchun makiga ketgan kunlarning birida endigina o'n yoshga kirgan o'g'li politsiya tomonidan yaralanib, ta'qib qilinayotgan jinoyatchini uyidagi somon ichiga yashiradi. Undan politsiyachilar jinoyatchini so'raganlarida, bola xotirjamlik bilan ko'rmaganligini aytadi. Fortunato qo'rqmasdan dadil javob berganligi uchun unga avval ishonishadi, lekin ayyor politsiyachi undan gap olmoqchi bo'lib, tilla soatini ko'rsatadi. Agar jinoyatchini qayerdaligini aytsa, unga o'sha soatni bermoqchi bo'ladi. Bola rozi bo'lib, qochoq yashiringan joyni ko'rsatadi. Shu voqea ustiga kelgan Matteo Falkone o'g'lining qilgan ishidan xabar topadi. Va qattiq jahli jiqadi.

Ayniqsa, mahbusning “bu uy xoinlar uyi” degan gapi Matteoga qattiq ta’sir qiladi. Politsiyachilar mahbusni olib ketganlaridan so’ng, o’g’lining bitta soat uchun sotqinlik qilganini bilgan ota Fortunatoning kechirim so’rashiga ham qaramay ovloq joyda otib o’ldiradi.

Matteoning Korsikadagi obro’li kishi ekanligi, undan hatto hukumat odamlari ham hadiksirashini Fortunato bilan Politsiyachining suhbatidan bilib olish mumkin:

- *Mening otam – Matteo Falkone! – dedi ma’nodor qilib.*
- *Bilasanmi, shumtaka, istasam, seni Kortoga yoki Bastiyaga olib borib, turmaga tiqib qo’yaman. Qo’l-oyog’ingga kishan urib pohlga yotkizaman-da, kallangni olaman. Yaxshisi, Jannetto Sanperoning qayerdaligini ayt.*

Bola bunday kulgili po’pisani eshitib, qah-qah urib kulib yubordi. U hamon takrorlardi:

- *Mening otam – Matteo Falkone.*
- *Serjant! – dedi pichirlab voltijerlardan biri. – Keling, qo’ying. Matteo bilan o’chakishib nima qilasiz?*

Gamba nochor ahvolda qoldi...⁵¹

Ko’rinadiki, Matteo qanday odamligini o’g’li Fortunato ham, politsiyachi Gambo ham yaxshi biladi. Bola otasining ismini aytib faxrlanadi. U do’stlariga juda rahmdil, qo’lidan kelgan yordamini ayamaydigan odam bo’lsa, u bilan o’chakishganlar uchun Matteodan havfliroq dushman yo’q edi. Matteoning o’zgaruvchan harakterli inson bo’lib, uning uchun g’urur va nomus birinchi o’rinda turardi. O’g’li ham otasidek qo’rqmas va mag’rur bo’lib ulg’ayayotganini ko’rishimiz mumkin. Ammo Fortunato baribir bola edi. Xalqimizda “Aldagani bola yaxshi” degan ibora bor. Bu esa politsiyachi Gamboga qo’l keladi. Do’q-po’pisalari unga ta’sir ham qilmaganini ko’rgan Gambo unga tilla soatini ko’rsatib,

⁵¹ Проспер Мериме. “Матео Фальконе”. - Хуршид Даврон кутубхонаси, 28.10.2018. www.kh-davron.uz

jinoyatchining yashiringan joyini aytishi evaziga shu soatni berishini aytib, bolani avray boshlaydi.

- *Hoy, mug'ombir! Ko'kragingga shunaqa soat osib, Porto-Vekko ko'chalaridan to'vusday gerdayib yurging kelar-a? O'tgan-ketgan sendan: "Soat necha?" deb so'raydi, sen esa: "Mana, o'zingiz ko'ra qoling", soatni tutasan.*

- *Katta bo'lganimda kapral amakim menga soat sovg'a qiladi.*

- *Shundog'u lekin amaking o'g'liga hozirning o'zida soat olib bergan... To'g'ri, u soat bunchalik chiroyli emas... Amakingning o'g'li hali sendan kichkina... Bola chuqur tin oldi.⁵²*

Bola nihoyat taslim bo'ladi. Jinoyatchini yashirgan joyini ko'rsatib beradi. Politsiyachilar Jannettoni qo'lga olib turganlarida Matteo xotini bilan uyiga qaytib kelishadi. Gambo Matteoga bo'lgan voqealarni aytib beradi. O'g'lining sotqinlik qilganini eshitgan Matteoning og'zidan faqat bir so'z chiqadi: "Ming lanat!". Ayniqsa, Jannetto ostonaga tupurib, "Sotqinning uyi!"-degan so'zlari g'urur va nomusini poymol qilgandi. "O'limini bo'yniga olgan odamgina yurak yutib Falkoneni sotqin deyishi mumkin edi". Lekin Matteo indamadi. Chunki uning uyi rostan ham sotqinning uyiga aylangandi. Otasining bu holatini ko'rgan Fortunato qanday ish qilib qo'yganini va uni otasining qattiq jazosi kutib turganini tushungan edi.

- *Boplabsan! – dedi Matteo xotirjam ohangda. Ammo bu odamni bilganlar xotirjamlik zamiridagi qahr-g'azabdan voqif edilar.*

- *Ota! – deb qichqirib yubordi bola. Uning ko'zlarida yosh tirqirardi. U tiz cho'kmoqchi bo'lganday, old tomonga bir qadam qo'ydi.*

Lekin Matteo birdan hayqirdi:

- *Yo'qol!⁵³*

Matteo, xotini va o'g'li ming yolvormasin, o'z pushti kamaridan bo'lgan Fortunatoni kechirolmadi. Bunga uning vijdoni va g'ururi yo'l qo'ymasdi.

⁵² Проспер Мериме. "Матео Фальконе". - Хуршид Даврон кутубхонаси, 28.10.2018. www.kh-davron.uz

⁵³ Проспер Мериме. "Матео Фальконе". - Хуршид Даврон кутубхонаси, 28.10.2018. www.kh-davron.uz

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, bu yerliklar uchun sotqinlik kechirib bo'lmas gunoh va sharmandalik edi. Matteoning ko'nglida nomus va otalik hissi kurash olib borardi. Lekin otalik hissi nomusidan ustun bo'lolmadi. U bu sharmandalikdan va sotqin degan tamg'adan oilasini, o'zini va farzandini xalos etishi kerak edi. Buning yagona chorasj Fortunatoning o'limi edi. Matteo uni amalga oshirdi va farzandini o'z qo'li bilan otib o'ldirdi.

Matteo jasadga qayrilib ham qaramay, o'g'liga go'r qazigani belkurak olib kelish uchun so'qmoqdan uy tomonga yo'l oldi. Bir necha qadam qo'yib ulgirmay, u o'q ovozidan xavotirlanib, yugurib kelayotgan Juzep-paga duch keldi.

- *Nima qilib qo'yding? – deb qichqirdi u.*

- *Adolat qaror topdi!*⁵⁴

Matteo o'g'lini o'ldirmadi, u sotqinning jazosini berdi. Va o'zining e'tiqodidan kelib chiqib, adolatga erishdi. U o'g'lining jasadiga qarab ham qo'ymaydi. Chunki Matteo u yerda o'g'lining jasadini emas, bir sotqinning jasadini ko'radi. Endigina o'n yoshga kirgan bola uchun og'ir jazo berildi. Qolaversa, o'z otasi tomonidan. Matteo o'g'lini oilasidan chiqqan birinchi xoinligini aytadi. Matteo o'g'lini g'azabdan yoki jinnilik qilib o'ldirmaydi. Unda tanlash imkoni yo'q edi. Fortunato otasining qo'lidan o'lim topgan bo'lsa-da, u hayotning beshafqat va yozilmagan qonunlari qurboniga aylandi. Asarda Matteoning pushaymonligi, yoki farzandiga achinishi bayon qilinmaydi. U or-nomus masalasini oilaviy rishtalardan, insoniy tuyg'ulardan ham ustun qo'yuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Matteo o'sha davr, o'sha makon odamlaridagi xarakterlarni o'zidan jamlagan umumlashma obraz desak yanglishmagan bo'lamiz.

O'zbeklarda ham nomus va oila sha'ni azaldan juda muhim masala hisoblanadi. Nomus, or, g'urur, andisha kabi tushunchalar har bir o'zbekning qon-qonig singib ketgan bo'lib, hech kim bunga yuzaki qarolmaydi. O'z navbatida, bu masalaga mentalitetdan kelib chiqqan holda o'zbek adabiyotida ham katta e'tibor qaratilgan. Biron bir asar yo'qki, voqealar rivojiga ana shu tushunchalar ta'sir qilmagan.

⁵⁴ Ўша манба

O‘zbek adabiyotidagi biz ko‘rmoqchi bo‘lgan Abdulla Qahhorning “Hur qiz” hikoyasidagi fojia ham yuqoridagi hikoya singari nomus va oila shaniga borib taqaladi. Voqea Abdurahmonning xonadonida bo‘lib o‘tadi. Abdurahmonning xotini og‘ir kasal bo‘lib, to‘shakka mixlanib qolgan edi. Ularning ikkita farzandi bo‘lib, kattasi Sarvinso, kichigi esa G‘afforjon. Ona vaqti-soati yaqinlashib qolganini sezib, hech bo‘lmasa qizimning to‘yini ko‘rib qolay deydi. Abdurahmon xotinining istagini bajarish uchun endigina o‘n olti yoshga to‘lgan Savrinisoni Azim degan bolaga turmushga bermoqchi bo‘ladi. To‘yni ham “kelasi oyning, sakkizi, juma kuniga” tayin qilib qo‘yishadi. Azimni umuman yoqtirmaydigan, unda zig‘ircha ham ko‘ngli bo‘lmagan Savriniso hali yoshligini, unga tegishni xohlamasligini aytib, yig‘laydi. Qizining bu gaplarini otasiga aytganlarida u “*O‘zing necha yoshda erga tekkansan?! O‘n to‘rttda eding! Nima qilasan Savrini qaritib!*” deb ularni urishib beradi. Savriniso o‘zi yoqtirmagan odamiga turmushga chiqishdan boshqa chorasi qolmaganini bilib, har kuni yig‘layverganidan ko‘zlari ishib ketadi. Bir kuni u jiyaniga hasratini to‘kib yig‘laydi. Uzoqdan poyezd ovozi eshitib, “*Poyezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman! Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket!*” deb nola qiladi. Savrinisoning bu gaplarini eshitib qolgan ota qizini qattiq do‘pposlaydi:

- *Qayoqqa olib ketadi! – dedi va Savriniso tomon otildi.*

Men arang qochib qutildim. Amakim daxshat ichida o‘zini uyga urgan Savrinisoning ketidan otillib kirdi. Savrinisoning avval “Dadajon!” degan chinqirig‘i, keyin mushukday vag‘illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu, jim bo‘lib qoldi. Bu jimlikda tovushi eshitildi.

- *Hoy, bolam, Abdurahmon, evida! Po‘pisa qilgin, qo‘rqitgin, nainki shunaqa ursang!*⁵⁵

O‘zi shundog‘am xotinining kasalligidan ezilib yurgan, buning ustiga bo‘lajak qudalar bilan vadalashib, to‘y tashvishida yurgan Abdurahmonga qizining u gaplari g‘azabini jilovlab bo‘lmas darajaga keltiradi. Bir tomondan Savrinisoning o‘ziga aytmasa-da, otaning qaroriga qarshi borayotgani, yana bir tomondan

⁵⁵ Абдулла Қаҳҳор. “Ўтмишдан эртаклар”. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988-йил. 209- б

qizining uydan qochib ketib, uni sharmanda qilishi mumkin degan havotir o‘z farzandiga shafqatsizlarcha muomala qilishiga sababchi bo‘ladi. Abdurahmon g‘azabdan tushgach va qizini o‘lim to‘shagiga tushib qolganini bilgach, qilgan ishidan qattiq pushaymon bo‘ladi. Xushsiz yotgan qizini ko‘rgani kirishga ham jur‘at qilolmaydi: *“Shomdan keyin dadam bilan amakim kelishdi. Dadam Savrinisoning yonida birpas o‘tirgandan keyin yelkasiga sekin turti. Savriniso ko‘zlarini hiyol ochdi, lekin osma chiroqning xira shu’lasida dadamni tanimadi, sinchiklab qarashga darmoni yetmadi shekilli, ko‘zini yana yumdi. Dadam tashqariga chiqdi. Eshik oldida qilmishiga o‘kinib, boshini quyi solib turgan amakim imo bilan: “Qalay?” deb so‘radi. Dadam indamay zinadan tushib ketdi”*.(209)

Savrinso o‘sha kuni kechasi og‘irlashib qoladi va joni uziladi. O‘z otasidan yegan qattiq kaltak uni narigi dunyoga olib ketadi. Shu o‘rinda quyidagi jummalarga e‘tiborimizni qaratamiz: *“O‘lik yuvilib tobutga solingandan keyin azaga kelgan xotinlar orasida: “Qizning o‘ng biqini momataloq bo‘lib yotibdi, zarb yegan ekan” degan gap o‘rmalab qoldi. Buni fahmlagan faxmladi-yu faxmlamagan faxmlamadi, yopiqliq qozon yopiqligicha qolaverdi”*.(210)

O‘zbeklarda nomus, oila sha’ni, “mahalla-ko‘y nima deydi?” degan andisha qon-qoniga singib ketgan bo‘lib, bu milliylikning mohiyatlaridan biri, o‘zbekning xarakteri edi. Bir tomondan qaraganda, bu tushunchalar ijobiy ko‘rinish kasb etadi. Lekin o‘sha davrda mana shu tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilish, yoki ularni oila a‘zolaridan ustun qo‘yish hollari uchrab turganligi sabab juda ko‘p oilalar buzilib ketganligini, farzandlar taqdiri baxtsiz yakun topganligining guvohi bo‘lamiz.

Hikoyamiz qahramoni Abdurahmonning Savrinisoning birgina nojo‘ya gapi uchun ayamay do‘pposlaganidan uning judayam nomusli odam ekanligini bilib olishimiz mumkin. To‘g‘ri, u qizini qasddan o‘ldirish uchun bunday qilmadi. Faqat jahl ustida qizining esini kiritib qo‘ymoqchi edi, xolos. Shu yerda o‘zbek millatiga xos mentalitet, haqiqiy o‘zbek otasi namoyon bo‘ladi: *“Tobut ko‘tarilganda amakim ikki-uch qalqidi-yu chalqanchasiga ketdi. Odamlar uni uyiga olib kirib*

yotqizishdi. Amakim shu yotgancha Savrinisoning yettisiga ham, yigirmasiga ham turolmadi”.⁵⁶

Insonning eng og‘ir judoliklaridan biri bu farzand dog‘i hisoblanadi. Abdurahmonni esa bir tomondan farzand dog‘i, bir tomondan aybdorlik hissi tamom qildi. Abdurahmon misolida o‘sha davrdagi johil tuzum, Savriniso misolida esa erki o‘zida bo‘lmagan o‘zbek xalqini ko‘rishimiz mumkin. Lekin abdurahmonni ota sifatida oladigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotidagi farzandining qotili, farzandkush obrazining yorqin namunasi deb bermalol ayta olamiz.

Jahon adabiyoti namunalaridan N.V. Gogolning “Mirgorod” asariga kiruvchi “Taras Bulba” qissasida ham xoinlik qilgani uchun o‘z o‘g‘lini o‘ldirgan ota motivi uchraydi. Asarning asosiy qahramoni Taras Bulba bo‘lib, uning ikki o‘g‘li Ostap va Andriy Kiyev akademiyasida tahsil olib, uyga qaytib kelishadi. So‘ngra ota va o‘g‘il zaporojyeli kazaklar markazi Sechga o‘tlanadilar. Sechda qahramonlar boshqa kazaklarga qo‘shilib, polyaklarga qarshi jang qiladilar. O‘qishda polyak qizini sevib qolgan Andriy sevgilisi oldiga borib polyaklar safiga qo‘shiladi. Bundan jahli chiqqan ota janglarning birida o‘g‘lini o‘ldiradi. Ostapni esa polyaklar asir olib, qiynab dorga osadi. Taras Bulba ham keyingi janglarda asir olinib qatl etiladi.

Yozuvchi Taras Bulbani mard, yovqur, vatani, e‘tiqodi uchun o‘limga ham tayyor, qat‘iy fe‘lli, yovga nafrati cheksiz, xatto xoinlik qilgan o‘g‘lini o‘ldirishdan zarra ikkilanmaydigan bir shaxs qilib tasvirlaydi. Yoshligidan otasidek hech narsadan qo‘rqmaydigan, mardona o‘g‘li Ostap va bolaligidan rahmdilroq va ko‘ngli bo‘shroq o‘sgan Andriylarga Taras Bulbaning ikki xil munosabatini ko‘ramiz. U avval, o‘g‘illari o‘qishdan kelishlari bilan ularni bosqinchilik janglariga olib ketadi. Maqsadi o‘g‘illarining qahramonliklarini ko‘rib faxrlanish va ularning bu qahramonliklarini boshqalarga aytib maqtanish edi: *“Endi bo‘lsa u, ikki azamat o‘g‘li bilan Sechga borib, undagilarga: “Ko‘ringlar, sizlarga qanday azamatlarni boshlab keldim!” deb kerilishini, ko‘p urushlarni ko‘rib chiniqqan o‘rtoqlariga bolalarini taqdim qilganida qanday faxrlanishini, bolalarning jonbozlikdagi va*

⁵⁶ Абдулла Қаҳҳор. “Ўтмишдан эртаклар”. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988-йил. 210- б

bo'zaxo'rlikdagi polvonligini ko'rib qanday suyunishini o'ylar, ichidan shodlanar edi..."⁵⁷ Bu yerda Taras Bulbada ham barcha otalarga xos xarakter mavjudligini ko'ramiz. Ya'ni u o'g'illarini qanchalik yaxshi ko'rmasin, ularga bo'lgan muhabbatini ko'rsatmaslikka xarakat qiladi. U ham boshqa otalar singari o'g'illarining yutug'laridan faxrlanishni chin dilidan xohlaydi. Bulba shu maqsadda tinch yashab turgan kazaklarni urushga chorlaydi. Lekin uning bir o'g'li unga sharmandalik va isnod olib keladi. Yana bir o'g'li esa dushman qo'lida otasining ko'z oldida ayanchli o'lim topadi.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek, otasi va akasidan farqli o'laroq, ko'ngli bo'shroq Andriy kazak birodarlari bilan polyaklarni qamal qilishayotgan paytda qamal qilingan shaxar ichida o'qib yurgan kezlarida oshiq bo'lgan qiz ham borligini, u bir burda nonga zor ekanligini eshitadi. Bir qop nonni olib, shaxar ichiga kiradi. U yerda ochlikdan o'lib yotgan odamlarni, anchadan buyon tuz totmay qiynalayotgan sevgilisini ko'rib, birodarlariga nisbatan nafrat uyg'onadi. Andriy bir qarorga keladi – sevgan malikasi va begunoh aholini himoya qilib, o'z do'stlariga, otasiga qarshi qurol ko'tarishga jazm etadi: *"Otam, o'rtoqlarim, vatanim menga kerakmas, dedi Andriy boshini silkib va terakdek qaddini rostlab, - Bunday bo'lsa, agar gap shu bo'lsa, bundan buyon mening hech kimim yo'q!"* (264) Andriy go'zallik oldida ojiz qoladi. Kazaklarga xos bo'lmagan tarzda otasidan, yaqinlaridan, ayniqsa, vatanidan voz kechadi. Andriyni dushmanga asir tushgan deb o'ylab yurgan Taras Bulba xizmatkori Yankeldan uni dushman tarafga o'tib ketganligini, u otasidan, akasi va yaqinlaridan voz kechganligini, ularga qarshi urushmoqchi ekanligini eshitgach, avvaliga, ishonmaydi. Chunki kazaklarda bunday holat bo'lmagan edi. Keyin Andriyning qizlarga suyagi yo'qligini, kechasi bir ayol bilan ko'rganini eslab, uning gaplariga ishonadi. Shundan keyin Bulba Andriyga o'g'il sifatida emas, dushman sifatida qaray boshlaydi. Janglarning birida dushman askarlariga bosh bo'lib jangga kirgan Andriyni ko'rgan Bulba yonidagilarga uni o'zi yashirinib turgan joyga boshlab kelishlarini aytadi. Andriy kazaklarni quvlab kelganda qarshisida Taras bulba paydo bo'ladi:

⁵⁷ Гоголь Н.В. "Тарас Бульба", - Т.: Ёш гвардия, 1976. (Keyingi misollar shu nashrdan olinib sahifasi ko'rsatiladi)

- *Qalaysan o'g'lim, Lyaxlaring joningga oro kirdimi? – Andriydan sado chiqmadi.*

- *Shunday ham xiyonat bo'ladimi! Diningni sotding-a! O'z qardoshlaringni sotding-a! Qani, otadan tush!*

Yosh boladay bo'ysunib otdan tushdi, otasi oldiga kelib jim turdi.

- *Qimir etmasdan jim tur! Seni dunyoga keltirgan ham o'zim edim, endi o'ldiruvchi ham o'zim bo'lay! – dedi Taras. (293)*

Andriy qanday ish qilib qo'yganini, vataniga va diniga xoinlik qilishning qanchalar og'ir gunoh ekanligini butun umrini dini va vatanining himoyasiga bag'ishlagan otasi – Taras Bulbaning qarshisida anglab yetdi. U otasini yaxshi bilardi. Bu ishi uchun otasidan o'lim jazosini olishni ham bilib turardi, ammo u qarshilik ham ko'rsatmaydi, qochib ham ketmaydi. Lekin ohirgi aytgan so'zi malikasining nomi bo'ladi. Taras yelkasidagi miltiqni olib o'g'lini otib o'ldiradi. Ota o'z qo'li bilan zurriyotini yo'q qiladi. O'g'lini o'ldirgandan keyingi Taras Bulbaning so'zlariga e'tibor qaratamiz: “ – *Kazaklikka qayeri kam edi? Qaddi baland, qoshlari qalam, yuzida kiborlik, qo'li jangda mahkam edi! Esiz yigit-a! Yaramas itdek xor bo'lib o'ldi! – dedi Taras*”. (293) Yuqorida biz Taras Andriyni o'g'il emas, dushman hisoblay boshlaganligini aytgan edik. Uning “*Esiz yigit-a!*” degan so'zlari gapimizni isbotlaydi. Taras o'g'li uchun achinmaydi. U bir mard kazakning o'limiga achinadi, xolos.

Tarasning burchi, asarda ko'p takrorlanganidek, vatanini, dinini himoya qilish edi. U bu yo'lda o'g'illarini ham mudhish bir qimorda dovga tikkan edi. Taras bu bilan ham to'xtamaydi. U o'z farzandini o'ldirishday mudxish va ayanchli bu voqea unga hech bir ta'sir qilmaydi – darhol o'tlanib, yana qirg'inbarot ichiga kirib ketaveradi. Fikrimizning yakunida Katta Sovet qomusidagi “Gogol” maqolasida yozilgan ushbu so'zlarni keltirib o'tmoqchiman: “Taras Bulba obrazida xalqning qahramon o'g'illariga xos bo'lgan eng yaxshi hislatlar – ularning vatanga, birodarlariga sodiqligi, mardlik, vatan dushmanlariga nafrati, cheksiz jasurligi va jo'mardligi aks etgan. Taras mazlumlarning daxshatli qasoskori, haq ish uchun kurashning dono va tajribali rahbari sifatida ko'rsatiladi. U o'g'li Andriyning eng

og'ir jinoyati – vatanga xiyonati uchun sira ham ikkilanmasdan qatl etadi. Bu yerda ham uning uchun umumiy ish, vatan oldidagi burch tuyg'usi shaxsiy hissiyotlar, qondoshlikdan yuqori qo'yiladi".⁵⁸

Farzandlarning vatanga, o'z oilasiga nisbatan qilgan xoinliklari o'zbek adabiyotida ham turli ko'rinishlarda o'z ifodasini topgan. Yuqoridagi biz ko'rgan "Taras Bulba" qissasidagi g'oya, ya'ni xoin farzand va u bilan vatanparvar otaning o'zaro to'qnashuvi o'zbek adabiyoti namunalaridan Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida ham aks etadi. "ufq" trilogiyasining uchinchi, ya'ni "Hijron kunlarida" qismida vatani, oilasi uchun frontga ketib, qirg'inbarot janglarning birida qahramonlik ko'rsatib, bir oyog'idan ayrilgan Ikromjon va uning urushdan qochib, vatan xoiniga aylangan o'g'li Tursunboy obrazlarining taqdiri yuqori o'ringa chiqadi.

Tursinboy yoshligidan erka o'sganligi uchun frontdagi qiyinchiliklarga dosh berolmay qochoqqa aylanadi va qishlog'iga yaqin joydagi to'qayzorda yashay boshlaydi. Jannat xola esa o'g'lini ko'rib qolib, unga ovqatlar olib kelib turadi. Tursunboy to'qayda yashayverib yovvoyilashib ketadi. U onasi o'lganini bilib ham to'qaydan chiqmaydi. U onasidan ayrilib qolgani uchun emas, endi unga ovqat olib keladigan odam yo'qligi uchun o'kinadi. Kunlarning birida Ikromjon to'qayzorda aylanib yurganida o'g'lini ko'rib qoladi. Ikromjonning o'g'lini ko'rib uni jon holatda quchoqlab, yuz ko'zlaridan o'pishidan uning o'zbeklarga xos otalik mehrini ko'ramiz: *"Tursun, Tursunboy, bolam! – dedi jonholatda Ikromjon. Tursunboy bu gal joyidan qimirlamay turib qoldi. Ikromjon bora solib uning bo'yniga osildi. Qo'ltiqtayog'i yerga tushdi. Bir oyoqlab turib uning yelkalarini silar, peshonalaridan o'pard"*⁵⁹. U Tursunboyi frontdan xat-xabar yo'qligi uchun mardlarcha halok bo'lgan deb yurardi. Afsuski, o'g'li vatan oldidagi burchini tashlab jonini saqlash uchun xor bo'lib, qochib yurganini ko'rgan ota undan qattiq nafratlana boshlaydi. Uning tilab olgan yolg'izgina o'g'li to'rt oydan beri yolg'iz to'qayda yashayverib, odam sifatidan bir jirkanch yirtqich qiyofasiga kirib qolgan edi. U o'g'ilidan ko'p narsalarni kutagan edi, u boshqalar qatori

⁵⁸ Большая Советская энциклопедия, – М., изд-во "БСЭ", 1952, с. 572.

⁵⁹ Said Ahmad. "Ufq" trilogiya. – T.: Gofur Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. 465-6.

o'g'lidan faxrlanishni, keksayganda unga suyanishni istardi. Lekin Tursunboy vataniga, o'z ota-onasiga xoinlik qildi. Buni Ikromjon hech qachon kechira olmasdi. U o'g'lini alamidan urib ham xumoridan chiqmaydi. Ikromjonning Tursunboyga qarata aytgan quyidagi gaplari hozirgi kunda ham vatanini, oilasini sotib yurgan noqobil va manfur ysohlarga ham ta'luqlidir: *“Onaga vafo qilmagan bola, kimga vafo qiladi! Yurt ishiga yaramagan bola, qay ishga yaraydi! Ikromjon unga qarab qahr g'azab bilan qichqiradi: - Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak! Iflos! It! Tur o'rningdan!”*⁶⁰ Ikromjon o'g'lini qishloqqa olib bormoqchi bo'ladi. Uning jazosini yurt berishini xohlaydi. Ammo jonidan boshqa narsani o'ylamaydigan Tursunboy otasini qo'lidan chiqib, qochib ketadi. Ikromjon jahl bilan unga qarata o'q otadi. Lekin o'q tegmaydi. Ikromjon o'g'lining jazosini berish, uni o'ldirish uchun nomus kuchidan o'q uzadi. Shu joyda Sayid Ahmad o'zbek otalariga xos xarakterni ikki dona so'z bilan ochib beradi: *“Xayriyat, tegmabdi...”* Bu ikki so'zdan Ikromjonning jahl ustida o'ldirmoqchi bo'lganini, lekin o'ldirishni xohlamaganini bilib olish mumkin. Ammo Ikromjonning bu harakatini farzandkushlik harakati deyishimiz mumkin. Buning ustiga, u Tursunboyi ko'nglida o'ldirib bo'lgandi. Qabri esa qalbining tubida do'ppayib turardi.

Ko'rinib turganidek, jahon adabiyotida ham o'zbek adabiyotida ham o'z farzandini o'ldirgan farzandkush obrazlari, ularning ichki kechinmalari ham bir-biridan zamon va makon, maqsad va omillar yuzasidan farq qiladi. Jahon adabiyotida biror maqsad yoki farzandining xatosi uchun ongli ravishda ota farzandini o'ldirgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida atayin farzandining joniga qasd qilish hollari deyarli uchramaydi. Adabiyotdagi bu holat mentalitet va milliylikka borib taqaladi. O'zbek adabiyoti islom dini negizida shakllanganligi uchun oilaviy munosabatlar muqaddas hisoblanadi. Ota kechirimli va farzandining xatolarida o'zini ko'proq aybdor deb hisoblaydi.

⁶⁰ Саид Аҳмад. “Уфқ” трилогия. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. 466-б.

XULOSA

Bizga ma'lumki, adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini ko'tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko'ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-ma'rifiy xususiyati, ayniqsa, tahlil va talqin vositasida baholash mezonlariga aniqlik kiritishda yaqqol ko'rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda jamiyat hayotini sog'lomlashtirish va dunyoqarashini to'g'ri yo'lga solish yetakchi mavqega erishadi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, avvalo, turli mamlakat va millatlar adabiyotining o'xshash va farqli jihatlarini o'zaro taqqoslab tadqiq qilish orqali badiiy adabiyotni chuqurroq o'rganishga katta yordam beradi. Shuningdek, yozuvchi mahoratini tizim shaklida ochib berish, uning milliy yoki jahon adabiyotidagi mavqeini belgilash, yozuvchining o'ziga xos iste'dodini, badiiy mahorati va yashirin qirralarini bilib olish uchun boshqa bir ijodkorning o'xshash asari bilan qiyoslab o'rganish ham muhim sanaladi. Qiyoslash orqali adabiyotning asl maqsadi ochiladi.

Badiiy adabiyot paydo bo'lganidan buyon uning asosiy obyekti hisoblangan inson hayotiga doir turli muammolar doimiy yo'ldosh bo'lib kelayotir. Shulardan biri otalar va bolalar (keng ma'noda ajdodlar va avlodlar) o'rtasidagi munosabatlar masalasidir. Insoniyat turmushi yoki jamiyat taraqqiyotida yuz bergan o'zgarishlarning aksariyati keksa avlod bilan o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasidagi kelishmovchiliklar natijasidir. Bu jarayon badiiy adabiyotda aks etmasligi mumkin emas. Otalar va bolalar o'rtasida yuzaga kelgan turli munosabatlar nafaqat badiiy adabiyotda, balki real hayotda ham doimiy muammolaridan biridir. Biz ushbu ishimizda aynan shu munosabatlarning salbiy ko'rinishlari, jahon va o'zbek adabiyotida padarkush va farzandkush obrazlari aks etgan asarlarni qiyosiy tahlil qilib, o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini, fojeaning kelib chiqish sabablarini, unga davr va makon ta'sirini ochib berishga asosiy e'tibor qaratdik. Shu bilan birga ota va bola munosabatlarining tarixiy va tarbiyaviy asoslariga ham to'xtalib o'tdik. Mavzuni

bayon qilish jarayonida jahon va o'zbek adabiyotidagi padarkush va farzandkush obrazlari aks etgan asarlarning qiyosiy tahlilidan foydalandik. Ushbu yozuvchilarning badiiy mahorati, o'ziga xos uslub va ifodalariga ham yo'l-yo'lakay e'tibor qaratdik. Ishimiz yakunida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Jahon adabiyotida otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ular o'rtasidagi muammolar aks etgan asarlar juda qadimiy tarixga va o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Ota va bola munosabatlari aks etgan dastlabki asarlar antik davr adabiyotida uchraydi. Ularda dono va adolatli otalar, mard va itoatkor farzandlar hamda ular o'rtasidagi iliq munosabatlar namoyon bo'ladi.

2. Keyingi davrlarga, ya'ni ma'rifatchilik adabiyotidan boshlab asarlardagi g'oya va qahramonlar holati davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta'sirida o'zgarib borgan. Jamiyatda eski avlod va yangi avlod o'rtasidagi keskinlik va ziddiyatlar asosiy mavzuga ko'tarildi.

3. O'zbek adabiyotida ota va bola munosabatlari dastlab xalq og'zaki ijodida o'z aksini topadi. Ularda, asosan, dono va mard otalar hamda ota o'gitlariga amal qilib kamolga erishgan farzandlar tasviri ifodalanadi. Biroq, asrlar o'tib, insoniyat tafakkurida ro'y bergan o'zgarishlar, jamiyat taraqqiyoti natijasida bu munosabat o'zgarib borgan. O'zbek mumtoz adabiyotida bu mavzu turli xil ko'rinishlarda, asosan, otaga bo'lgan hurmat, farzandning azizligi pand-nasihat korinishida asarlarda ifodalandi.

4. Otalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarga jadidchilik davriga kelib qarashlar o'zgardi. Jadid adabiyotida eski avlod bilan yangi avlod o'rtasida dunyoqarashdagi ziddiyatlar aks ettirildi va jamiyatdagi johillik, qoloqlik yoshlar, umuman millat fojeasiga olib kelinayotganligi ko'proq ota-onalarning johilliklari, ma'rifatsizliklari, farzandlarining his-tuyg'ulari bilan hisoblashmasligi kabi holatlar sabab ekanligi orqali ko'rsatib berishga urinildi.

5. Jahon va o'zbek adabiyotida padarkushlik hodisasi uch xil ko'rinishda yuzaga kelgan. Bular: a) bilmasdan o'ldirish; b) manfaatparastlik yo'lidagi qotillik; d) ma'rifatsizlik va johillik oqibatidagi qotillik. Badiiy asarlarda, asosan, yuqoridagi uch xil padarkushlik omili tasvirlanadi.

6. Badiiy adabiyotda farzandkush obrazlari milliy xususiyatga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Yevropa va rus adabiyotida qilgan gunohi uchun qasddan farzand o'ldirish hodisasi ko'proq uchrasa, Sharq va o'zbek adabiyotida bunday hol deyarli uchramaydi. Bu mentalitet omilining natijasidir.

7. Padarkush va farzandkush obrazlari avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar, muhit va tarixiy sharoit, xarakter va axloq kabi masalalarni badiiy yo'sinda bayon etadi. Bu obrazlar yordamida katta ijtimoiy va ma'naviy masalalar o'z ifodasini topgan.

8. Bu ilmish ish jarayonida badiiy adabiyotdagi azaliy muammolardan biri o'rganilib, qiyosiy metod asosida o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Umuman olganda, otalar va farzandlar o'rtasidagi munosabat, padarkush va farzandkush obrazlari tasvirlangan asarlar bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham ahamiyatlidir. Bunday asarlarni o'rganish orqali biz oilaning muqaddasligi, tarbiyaning ahamiyati insoniyat uchun qanchalik kuchli zaruriyat ekanligini yanada ko'proq anglab yetamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009
3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqi. 2017-yil, 3-avgust

Ilmiy manbalar:

4. Кийикбоев Ф. Ўзбек насрида оталар ва болалар муаммоси: генезиси реалистик талқини(1970 2000): Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.
5. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987
6. Karimov N. Janrmi yoki uslub. T.: Fan, 1991.
7. Karimov N. Najot adabiyotdadir – „Yoshlik” jurnali, 2014-yil 6-son.
8. Қаюмов О. Чет ел адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979
9. Қосимов А., Хўжаев С. XX аср чет ел адабиёти тарихи. – Фарғона, 2002
10. “Туркистон” газетаси. 2004 йил 19 январь.
11. Rajabova R. Remarkning „Uch og‘ayni”si haqida. – „Jahon adabiyoti”, 2014-yil 5-son.
12. Ўзбек халқ мақоллари. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1989.
13. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.
14. Асрор Самад. “Оқ (қ) падарлик”.– Т.: Фан, 2006.

15. 8-sinf adabiyot: darslik-majmua. – T.: Gʻofur Gʻulom nomidagi nahriyot matbaa ijodiy uyi, 2014.
 16. 10-sinf adabiyot: darslik-majmua/ B.Toʻxliyev [va boshq.], - T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
 17. Бобурнома: [Ўрта-ёшдаги мактаб болалари учун] /[нашрга тайёрловчи П. Шамсиев; Мухаррир А. Ўктам]. - Т.: Юлдузча, 1989.
 18. Лебедев Ю.В. Роман И.С.Тургенева “Отцы и дети”. - М.: Просвещение, 1982.
 19. Солижонов Й. Зулматдан нур кидирганлар. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
 20. Большая Советская энциклопедия, – М., изд-во “БСЭ”, 1952,
- Badiiy adabiyotlar:**
21. Н.А.Кун. “Қадимги Юнон афсона ва ривоятлари”. - Самарқанд.: “Зарафшон” нашриёти, 2005 –йил
 22. Оноре Балзак. “Горио ота” Т.: - Ғофур Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968- йил
 23. Ўзбек халқ эртаклари. Зумрад ва Қиммат. – Т.: Ўзбекистон, 1990.
 24. 7-sinfi uchun darslik-majmua / Q. Yoʻldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J.Yoʻldoshbekov. - T.: «Sharq», 2013.
 25. Toʻxliyev B. Abdurahmonova B. Adabiyot (majmua): Akademik litseylarning 1-bosqich oʻquvchilari uchun oʻquv qoʻllanma, - T.: “Bayoz”, 2016. – 224 b.
 26. Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. – Т.: Ёзувчи, 1990. 1-китоби;
 27. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. – Т.: Фан, 1991-1993. 7,8,11-жилдлар.
 28. Софокл. Шоҳ Эдип. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
 29. Абулқосим Фирдавсий. “Шоҳнома” достони. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975 й.

30. Вияям Шекспир. “Қирол Лир” . - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981 й. 106-б.
31. Мақсуд Шайхзода. “Мирзо Улуғбек”, - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъати нашриёти, 1972-йил.
32. То‘хлиев В., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot(majmua): akademik litseylarning III bosqich o‘quvchilari uchun. – Т.: “Bayoz”, 2016.
33. Проспер Мериме. “Матео Фальконе”. - Хуршид Даврон кутубхонаси, 28.10.2018. www.kh-davron.uz
34. Абдулла Қаҳҳор. “ Ўтмишдан эртаклар”. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988-йил.
35. Гоголь Н.В. “Тарас Бульба”, - Т.: Ёш гвардия, 1976.
36. Саид Аҳмад. “Уфқ” трилогия. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
37. Кафка Франц. Замок. Новеллы и притчи. –М., Политиздат, 1991.

Internet manbalari:

38. www.arxiv.uz
39. www.ziyonet.uz
40. www.ziyouz.com kutubxonasi